

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**A.Z.Mamatov, I.Z.Abbazov**

**TADQIQOT USLUB VA VOSITALARI**

**O'QUV QO'LLANMA**

*5321200- “Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi”  
ta'lif yo'naliishi bakalavr talabalari uchun tavsiya etilgan*

UDK 572.612.76 (075.8)

KVK 28.71

**A.Z.Mamatov, I.Z.Abbazov.** Tadqiqot uslub va vositalari.

O‘quv qo‘llanmada ilmiy tadqiqotlar asosiy usullari, tushunchasi, ta’rifi, va bosqichlari; izlanish metodikasi, ilmiy-texnikaviy axborotlarni o‘rganish va tahlil qilish haqida so‘z boradi. Ilmiy tadqiqotdagi matematik modellashtirish asoslari, tadqiqot va sistemalar turli obyektlarni modellari, shuningdek tajribalarni rejaliashtirish yo‘li bilan matematik modellashtirish ko‘rib chiqiladi. Hisoblash natijalari bilan birgalikda tajribaviy tadqiqotlar o‘tkazish metodologiyasi, tajriba natijalarini ishlab chiqish va tahlil usullari hamda empirik tenglamalarni tanlash usuli keltiriladi. Ilmiy tadqiqot ishlarining natijalarini rasmiylashtirish bo‘yicha va ularni tadbiq etish hamda natijalarni ahamiyatliliginini tekshirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Texnologiya yo‘nalishidagi talabalar, magistrlar uchun mo‘ljallangan, qo‘llanmadan doktorantlar foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchilar: t.f.d., professor A.Z.Mamatov

t.f.f.d. (PhD) I.Z.Abbazov

Taqrizchilar: t.f.n., TTESI, dotsent M.Axmatov

f.m.f.n., UzMU, dotsent S.Baxromov

## KIRISH

Soha tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarishni qayta moslash va yangilash, ishlab chiqarish uskunalaridan unumli foydalanish, bu sohada olib boriladigan ilmiy, texnikaviy izlanishlarni yetarli darajada olib borishni talab qiladi.

Tadqiqot uslublari va vositalari fanini o‘zlashtirishda talabalar umummatematika fanlaridan: ya’ni oliy matematika, informatika, amaliy matematika va umumkasbiy fanlaridan o‘zlashtirgan bilimlariga asoslanadi.

Bu fanni o‘rganish jarayonida talaba ilmiy izlanishlar olib borishda hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan modellashtirish uslublari va zamonaviy tadqiqotlar vositalaridan biri bo‘lmish, elektron hisoblash mashinalarida ishslash, kompyuter amaliy programmalaridan foydalanishni bilishi, olgan bilimlarini umumkasbiy va maxsus fanlarni o‘zlashtirishda, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda tadbiq eta olish zarur.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqa sanoatlar qatori paxta tozalash, to‘qimachilik va yengil sanoati korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni jahon bozorlarida raqobatbardoshligini ta’minlash uchun, tola, chigit, momiq va boshqa mahsulotlarning boshlang‘ich sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolishga katta ahamiyat bermoqda, bu esa tabiiy tolalarni qayta ishslash muammolari bo‘yicha izchil ilmiy tadqiqotlar olib borish kerak ekanligini taqozo etadi.

Hozirgi kunda kompyuter industriyasi va uning dasturiy ta’minotining jadal sur’atlar bilan rivojlanishi ilmiy-tadqiqot ishlarini avtomatlashtirishning asosi sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarni qo‘llash natijasida murakkab matematik, ilmiy-texnik, moliyaviy va iqtisodiy masalalarni yechishni avtomatlashtirish tomon yo‘naltirilgan ko‘plab dasturiy vositalar yaratildi. Masalan, *Matlab*, *Derive*, *Mathcad*, *Maple*, *Femlab*, *Flex PDE* kabi universal dasturiy paketlar shular jumlasidandir.

Hozirda ta’limni modernizatsiyalash muammosi nazariy va amaliy jihatdan,

keng muhokama qilinmoqda. Oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar taylorlanayotgan kadrlar sifatini yuqori, raqobatbardosh darajaga ko‘tarishga qaratiladigan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida samarali o‘qitish tashkil qilish, buning uchun zamonaviy o‘quv materiyallar bazasini yaratish masalasi ham jadallik bilan rivojlanmoqda.

Hozirda mavjud yuqori darajadagi o‘ta tezkor va katta xotirali hamda imkoniyatli zamonaviy kompyuterlar ular uchun yaratilayotgan tizimli, instrumental amaliy dasturlar, zamonaviy dasturlash tillari, dasturlash texnologiyalari, internet texnologiyalari barchasidan maqsad matematik modellashtirishni amalga oshirishdan iborat. Demak, inson faoliyati uchun o‘ta muhim murakkab tizimlarni matematik modellashtirish o‘z navbatida qaror qabul qilishda (odam nomidan) va bashorat (pragnoz) qilishda ishlatiladi.

O‘quv qo‘llanma V bobdan iborat bo‘lib, u ilmiy-tadqiqotlarni yangi uslubiyati: matematik modellashtirish va hisoblash tajribasiga qaratilgan. Bu uslubiyatni mazmuni shundan iboratki, unga joriy obyekt o‘zining matematik modelliga almashtiriladi, hamda matematik modellar zamonaviy hisoblash vositalari yordamida o‘rganiladi. Obyektning o‘zi bilan emas, uning modeli bilan ishlash uning mavjud holatlardagi hatti-xarakatini tez va sarf harajatlarsiz o‘rganishga imkon beradi. Obyektlarning modellar ustida o‘tkazilgan hisoblash, tajribalar zamonaviy hisoblash usullarining quvvati va informatikaning texnik vositalariga tayanib, obyektlarni nazariy yondashuvga qaraganda to‘laroq va chuqrarroq o‘rganish imkonini beradi.

## **I - BOB. FANNING VAZIFALARI. TADQIQOTNING ASOSIY TA'RIF VA TUSHUNCHALARI**

### **1.1. Fanning vazifalari va ilmiy tadqiqot usullari**

To‘qimachilik sanoati xalq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biridir. Unda har xil xom ashyolar ishlab chiqariladi. Sanoatda ishlataladigan texnika va texnologiyalar murakkabligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Hozirgi zamonda to‘qimachilik keng rivojlanayotgan sanoatlardan biridir. Paxta sanoatida ham xar hil farq va tarmoqlarga tegishli xosliklari mavjud. Paxta sanoatda paxtani qabul qilish, quritish, tozalash, jinlash va presslash texnologiyalarida mahsulot sifatini saqlash bo‘yicha bir qancha umumiy muammolar mavjud.

Ma’lumki bu texnologiyalarni o‘rganish undan o‘tayotgan paxta, chigit va tola mashsulotlarini sifatini nazorat qilish uchun tadqiqot ishlari olib boriladi. Tadqiqotlarni amalga oshirishda tajriba o‘tkazish, tajribani rejalashtirish, natijalarga ishlov berish va natijalar bo‘yicha xulosa qilishda “Tadqiqot uslub va vositalari” fanida qo‘llaniladigan usul va vositalardan foydalilanadi. Paxta sanoatining ajralib turadigan qismi bo‘lgan ishlab chiqarish qurilma va uskunalarining ommaviyligidadir, shuning uchun ularni baholash matematik statika usulida amalga oshiriladi.

Fanning vazifalari:

1. Ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish asoslari bilan tanishish.
2. Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish usullari, vositalari va tadqiqot ishlaridan olingan natijalarni tahlil etish usullari bilan tanishish.
3. Annotatsiya, referat, uslubiy qo‘llanma, maqola, tezis, monografiya va ilmiy ishni yakuni bo‘yicha hisobotlar yozish bilan tanishish.
4. Ilmiy tadqiqot ishlaridan olingan natijalarni matematik usullarni qo‘llab ishlov berish bilan tanishish.

Fan – inson faoliyati sohasi, borliq haqidagi obyektiv bilimlarni ishlab chiqish va nazariy tomondan sistemalashtirish uning vazifasi hisoblanadi.

Bu soha qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ilmiy tushunchalar, tamoyillar va aksiomalar, ilmiy, qonunlar, nazariyalar va farazlar, empirik ilmiy faktlar, uslublar, usullar va tadqiqot yo‘llari tarzidagi uzluksiz rivojlanib boruvchi bilimlar sistemasini;

- bilimlarning mazkur sistemalarini yaratish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan insonlarning ilmiy ijodini;

- insonlar ijodini ilmiy mehnat obyektlari, vositalari va ilmiy faoliyat sharoitlari bilan ta’minlovchi muassasani.

Fanning rivojlanishi ma’lumotlar to‘plashdan boshlanadi, ular o‘rganiladi va sistemalashtiriladi, umumlashtiriladi, ma’lum bo‘lganlarni tushuntirish va yangilarini oldindan aytib berishga imkon beruvchi ilmiy bilimlar mantiqiy tuzilgan sistemalarini yaratish uchun ayrim qonuniyatlarni ochishdan iborat bo‘ladi.

Tamoyillar va aksiomalar ilmiy bilishning boshlang‘ich holati hisoblanadi, bular sistemalashtirishning boshlang‘ich shakli bo‘lib, ta’limot, nazariya va h.k. lar asosida yotadi.

Ilmiy bilimni umumlashtirish va sistemalashtirishning oliy shakli bo‘lib ta’rif hisoblanadi. U mavjud obyektlar, jarayonlar va hodisalarini umumlashtirib idroklashga, shuningdek yangilarini oldindan aytib berishga imkon beruvchi tadqiqotlarning ilmiy tamoyillari, qonunlari va usullarini ifodalaydi.

Ilmiy bilim tizimida ilmiy qonunlar muhim tarkibiy qism bo‘lib hisoblanadi, bular tabiat, jamiyat va tafakkurdagi eng ahamiyatli, barqaror va takrorlanuvchi obyektiv ichki bog‘liqlikni aks ettiradi. Odatda ilmiy qonunlar umumiyl tushunchalar, kategoriylar jumlasiga kiradi. Olimlar ilmiy natijaga erishish vositasi sifatidagi faktik materiallarga yetarlicha ega bo‘lmagan hollarda faraz (gipoteza)dan foydalanadilar. Faraz ilmiy taxmin bo‘lib, tajribada tekshirishni talab etadi va nazariy jihatdan ishonchli ilmiy nazariya bo‘lish uchun asoslanishi lozim.

Fan masalalarni hal qilish omili bo‘lib, nazariyalar ishlab chiqish, borliq obyektiv qonunlarini ochish, ilmiy faktlarni aniqlash va hokazolar hisoblanadi. Bular ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridir.

Umumiy usullar uch guruhga bo‘linadi:

1. empirik tadqiqot usullari (kuzatish, qiyoslash, o‘lchash, tajriba);
2. nazariy tadqiqot usullari (mavhumdan aniqlikka tomon borish va boshqalar);
3. empirik va nazariy tadqiqot usullari (tahlil va sintezlash, induksiya va deduksiya, modellashtirish, abstraktlash va boshqalar).

Kuzatish – bilish usuli. Bunda obyektni o‘rganish unga aralashuvsiz amalga oshiriladi. Mazkur holda faqat obyektning xossasi, uning o‘zgarish tavsifi qayd etiladi va o‘lchanadi (masalan, paxtani saqlash, quritish, tozalash, jinlan, preslar va changni tozalash jarayonilarini ko‘zatish). Tadqiqot natijalari real mavjud obyektlarning tabiiy xususiyatlari va munosabat (bog‘liqlik)lari xususida bizga ma’lumot beradi.

Bu natijalar subyektning irodasi, sezgilari va istaklariga bog‘liq emas.

Qiyoslash – bilishning keng tarqalgan usuli, «barcha narsalar qiyoslanganda bilinadi» tamoyiliga asoslanadi. Qiyoslash natijasida bir qancha obyektlar uchun umumiy va xos bo‘lgan jihatlar aniqlanadi. Bu ma’lumki, qonuniyatlar va qonunlarni bilish yo‘lidagi birinchi qadamdir.

Qiyoslash samarali bo‘lishi uchun ikki asosiy talabga amal qilinishi zarur:

1. bunda o‘rtasida muayyan obyektiv umumiylilik bo‘lishi mumkin bo‘lgan obyektlarga taqqoslanishi kerak;
2. obyektlarni taqqoslash ahamiyatli (bilish vazifasi sifatida) xossalari, belgilar bo‘yicha amalga oshirilishi lozim.

Qiyoslashdan farqli o‘laroq, o‘lchash bilishning aniq vositasi hisoblanadi. Bu usulning qiymati shundan iboratki, atrof borliqdagi obyektlar haqida yuqori aniqlikka erishilinadi. Ilmiy bilishning empirik jarayonida o‘lchash kuzatish va qiyoslashdagiga o‘xshashdir.

Tajriba empirik tadqiqotning yuqorida ko‘rib o‘tilgan usullaridan farqli o‘larоq ancha umumiу ilmiy qо‘yilgan natija hisoblanadi. Bunda faqat kuzatib va o‘lchabgina qolmay, balki obyekt yoki tadqiqot obyektning o‘zi mavjud bo‘lgan sharoit muayyan tarzda o‘zgartiriladi. Tajriba natijasida bir yoki bir necha omillarni boshqa yoki boshqalarga ta’sirini aniqlash mumkin. Kuzatishdan farqli o‘larоq tajribaviy takrorlanishni ta’minlaydi, obyekt xususiyatini turli sharoitlarda tadqiq etish va obyektni «sof holda» o‘rganishga imkon beradi.

Empirik tadqiqot usullari ilmiy bilishda muhim ahamiyatga ega. Ular faqat farazni dalillash uchun asos bo‘libgina qolmay, balki ko‘pincha yangi ilmiy kashfiyotlar, qonunlar va boshqalarning manbai hamdir.

Empirik va nazariy tadqiqotlarda tahlil va sintez, deduksiya va induksiya, abstraktlash kabi universal usullar keng qо‘llanadi.

Tahlil usulining mohiyati tadqiqot obyektni fikran yoki jisman tarkibiy qismlarga ajratishdan iboratdir. Mazkur holda obyektning ayrim unsurlarining mohiyati, ularning bog‘liqligi va o‘zaro ta’siri o‘rganiladi.

Tahlildan farqli o‘larоq sintez tadqiqot obyektni yaxlit bir butun sifatida qismlarining birligi va o‘zaro bog‘liqligida bilishdan iboratdir. Sintez usuli tarkibiy qismlari tahlil qilingandan so‘ng murakkab sistemalarni tadqiq qilish uchun qо‘llanadi.

Tahlil va sintez usullari bir-biri bilan bog‘liq va ilmiy-tadqiqot vaqtida biri ikkinchisini to‘ldiradi. Ular o‘rganilayotgan obyektning xossasi va tadqiqot maqsadiga bog‘liq holda turli shakllarda qо‘llanilishi mumkin. Empirik, unsuriy-nazariy, tuzilmaviy-genetik tahlil va sintez mavjuddir.

Empirik tahlil va sintez obyekt bilan yuzaki tanishishda qо‘llaniladi. Bu holda obyektning ayrim qismlari ajratiladi, uning xususiyatlari aniqlanadi, oddiy o‘lchashlar va umumiу yuzasidagi narsalarni qayd etish amalga oshiriladi. Tahlil va sintezning bunday shakli tadqiqot obyektni o‘rganishga imkon beradi, lekin bularning mohiyatini ochish uchun kamlik qiladi.

Tadqiq etilayotgan obyekt mohiyatini o‘rganish uchun gumanitar-nazariy

tahlil va sintezdan foydalaniladi.

Tadqiq etilayotgan obyekt mohiyatiga chuqurroq kirib borish uchun tuzilmaviy genetik tahlil va sintez imkon beradi. Tahlil va sintezning bunday shaklida tadqiqot obyekti mohiyatining barcha tomonlariga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim unsurlar ajratiladi.

Deduksiya va induksiya tadqiqot obyektini o'rghanishda mantiqiy xulosalashda o'ziga xos «tahlil va sintez» hisoblanadi. Deduksiya umumiyyadan xususiyga bo'lgan mantiqiy xulosalarga asoslanadi. Bu usul matematika va mexanikada umumiyy qonunlar yoki aksiomalarda xususiy bog'liqliklar chiqarilayotganda keng qo'llaniladi. Deduksiyaga qarama-qarshi bo'lib induksiya hisoblanadi. Bu mantiqiy xulosalash xususiyidan umumiyya tomon amalga oshadi. Bu ikki usul ham tahlil va sintez usullari singari ilmiy-tadqiqotda bir-biri bilan bog'liq va bir-birini to'ldiradi.

Empirik va nazariy tadqiqotlarda yuqorida ko'rib o'tilgan usullardan tashqari abstraktlashtirish usuli ham keng qo'llanadi. Bu usulning mohiyati shundaki, tadqiq etilayotgan obyektning ahamiyatsiz tomonlari, qismlaridan ajratib olishdan iboratdir, bu uning mohiyatini ochib beruvchi xossalarni ajratish maqsadida qilinadi.

Abstraksiyalash yordamida boshqa hodisa kontekstidan fikran ajratilgan fikrlashning umumlashtirilgan natijalari shakllanadi, bu ular o'zaro bog'liqligini kuzatishga imkon beradi. Abstrakt fikrlash ijodiy yondashishning zaruriy shartlaridandir.

Matematik abstraktlash ilmiy-tadqiqot - formallashtirish usulining asosi hisoblanadi. Mazkur holda obyektning e'tiborli tomonlari (xossasi, belgisi, bog'liqligi va boshqalari) matematik termin va tenglamalarda ifodalanadi, bular bilan keyinchalik ma'lum qoida bo'yicha amallar bajariladi.

Ilmiy bilishda ko'pincha modellashtirish usuli qo'llaniladi. Buning mohiyati tadqiqot obyekti (asli)ni uning asosiy xossalarni ifodalovchi sun'iy sistema (model) bilan almashtirishdan iboratdir. Ilmiy tadqiqotdagi modellashtirish haqida

III-bobda ma'lumotlar keltirilgan.

Nazariy tadqiqot ko'pincha mavhumdan konkretga borish usuliga asoslanadi. Mazkur holda bilish jarayoni ikki nisbatan mustaqil bosqichga ajraladi.

Birinchi bosqichda konkretdan uning abstrakt ifodalangan haqiqiysiga o'tiladi. Tadqiqot obyekti qismlarga ajratiladi va ko'plab tushuncha va mulohazalar yordamida tavsiflanadi, ya'ni u fikriy qayd etilgan mavhumlar majmo'iga aylanadi. Bu - abstraksiya darajasida tadqiqot obyektining tahlilidir.

Keyinchalik, bilishning ikkinchi bosqichida abstraktdan konkretga borish amalga oshiriladi. Bunda tadqiqot obyektining yaxlitligi tiklanadi (sintez), lekin tafakkurda.

Shuni ta'kidlash o'rinniki, yuqorida ko'rib o'tilgan ilmiy bilish usullari qoidaga ko'ra birgalikda, bir-birlarini to'ldirgan holda qo'llaniladi.

Bilish mantiqi ahamiyatli bo'lgan, barqaror takrorlanuvchi va ayrimlikni aniqlash jarayoni sifatida tasavvur etiladi, bu o'rganilayotgan obyektni boshqalardan farqlaydi.

Bilish jarayonida tirik mushohadadan abstrakt fikrlashga va undan amaliyotga o'tish umumiyligi texnologiyasiga rioya etish muhimdir.

Shu sababli ilmiy izlanishlar turlari va bosqichlarini bilish va ulardan amalda foydalana olish tadqiqot o'tkazishda muhim ahamiyatga ega.

## **1.2. Ilmiy izlanishlar turlari va bosqichlari**

Ilmiy - tadqiqotlar qanday maqsadlarga karatilganligi va ilmiy chuqurligi bo'yicha uch asosiy turga bo'linadi: fundamental (nazariy), amaliy va tajriba konstruktorlik ishlanmalari.

Fundamental tadqiqotlar atrof borlikdagi yangi qonunlarni ochishga, hodisalararo aloqalarni aniqlashga, yangi nazariya va tamoyillar yaratishga yo'naltirilgan. Ular ijtimoiy bilimni kengaytirishga, tabiat qonunlarini yanada chuqurroq anglashga imkoniyat beradi.

Amaliy tadqiqotlar ilmiy negiz ishlab chiqishga yo‘naltiriladi. Bu negiz ishlab chiqarishning yangi vositalarini yaratishi yoki mavjudlarini takomillashtirishi zarur. Bu tadqiqotlar jamiyatning ishlab chiqarish muayyan tarmog‘ini rivojlantirishga bo‘lgan talablarini qondirishi lozim.

Tajriba konstruktorlik ishlardan maqsad amaliy yoki fundamental tadqiqotlarning natijalaridan texnika, ishlab chiqarish texnologiyasining yangi xillarini barpo qilish va uzlashtirish yoki mavjud namunalarini takomillashtirishda foydalanish. Tajriba konstruktorlik ishlari jarayonida ilmiy – tadqiqotlar texnikaviy takliflarga aylanadi.

Fundamental va amaliy ilmiy - tadqiqot ishlarni bajarish jarayoni bir qator asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

**1- bosqich.** Tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslash va ifoda etish:

- bo‘lajak tadqiqotlarga taalluqli muammolar bo‘yicha mamlakat va xorijiy adabiy manbalar bilan tanishish, mavzuning dolzarbligini asoslash;
- muammolar bo‘yicha tadqiqotlarning muxim yo‘nalishlarini belgilash va tasniflash;
- mavzuni ifodalash va tadqiqot annotatsiyasini tuzish;
- texnikaviy topshiriqni ishlab chiqish va ilmiy tadqiqot ishini umumiy kalendar rejasini tuzish;
- ko‘tilayotgan iqtisodiy yoki boshqa foydali samarani oldindan belgilash.

**2- bosqich.** Tadqiqotning maqsadi va vazifasini ifodalash:

- mamlakat va xorijiy nashrlar bibliografik ro‘yxatini tanlash va tuzish;
- mavzu bo‘yicha manbalar va referatlar annotatsiyasini tuzish;
- mavzu bo‘yicha muammoni tahlil qilish;
- tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilash.

**3- bosqich.** Nazariy tadqiqotlar:

- obyekt va tadqiqot predmetini tanlash, fizik mohiyatini o‘rganish va tadqiqot topshirig‘i asosida ishchi farazni shakllantirish;
- ishchi farazga muvofiq modelni aniqlash va uni tadqiq qilish;

- tadqiq etilayotgan muammo nazariyasini ishlab chiqish, tadqiqot natijalarini tahlil qilish.

**4- bosqich.** Tajribaviy tadqiqotlar:

- tajribaviy tadqiqotlar maqsad va vazifalarini aniqlash;
- tajribani rejalashtirish va uni o‘tkazish metodikasini ishlab chiqish;
- tajribaviy qo‘rilmalar o‘rnatish va tajribaning boshqa vositalarini yaratish;
- o‘lchov usulini asoslash va tanlash;
- tajribaviy tadqiqotlar o‘tkazish va ularning natijalarini ishlab chiqish.

**5- bosqich.** Ilmiy – tadqiqotlarni tahlil qilish va rasmiylashtirish:

- nazariy va tajribaviy tadqiqotlar natijalarini taqqoslash, ularning farqlarini tahlil qilish;
- tadqiqot obyekti nazariy modelini aniqlashtirish va xulosalar;
- ishchi farazni nazariyaga aylantirish;
- ilmiy va ishlab chiqarish xulosalarini shakllantirish, tadqiqot natijalarini baholash;
- ilmiy-texnikaviy hisobot tuzish va uni taqriz qildirish.

**6- bosqich.** Joriy etish va iqtisodiy samaradorlik:

- tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish;
- iqtisodiy samarani belgilash.

### **1.3. Ilmiy tadqiqot ishini asoslash va uni dolzarbligi**

Bilim oddiy va ilmiy bilimga bo‘linadi. Oddiy bilimda kishilar odatdagi o‘z kundalik hayotlarida borlikdagi predmet va hodisalarini bevosita o‘z sezgi a’zolari va tafakkuri orqali tushunadilar. Ilmiy bilimda borlikdagi predmet va hodisalarning qonuniyatlarini ularning moxiyati tushuniladi.

Ilmiy bilim muammoni hal qilish bilan bog‘liqdir. Muammolarning bo‘lmasligi tadqiqotlarning to‘xtab qolishi va fanning bir joyda qotib qolishiga olib keladi.

Ilmiy - tadqiqot ishlarida qo‘yidagilar farqlanadi: ilmiy yo‘nalish muammolar va mavzular.

Ilmiy yo‘nalish - fanning muayyan tarmog‘ida yirik, fundamental, nazariy tajribaviy masalalarni hal etishga bag‘ishlangan jamoaviy ilmiy - tadqiqot sohasi. Ilmiy yo‘nalish qo‘yidagi tuzilmaviy birliklarga bo‘linadi: mujassama muammolar va muammolar, mavzular va masalalar.

Muammo – murakkab ilmiy masala bo‘lib hal etishni tadqiq etishni talab qiladi. U mavjud eski bilimlar va empirik yoki nazariy tadqiqotlar natijasida yangidan topilgan bilimlar o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelishi tufayli hosil bo‘ladi. Mujassama muammolar - odatda bir yo‘nalishdagi murakkab bir qancha masalani o‘z ichiga oluvchi muammolar majmui.

Umuman, ilmiy izlanishlar 3 xil usulda olib boriladi: nazariy, tajribaviy, nazariy-tajribaviy.

Nazariy tadqiqotlar oldidan ma’lum bo‘lgan fizik - mexanik qonuniyatlarga asoslansa, tajribaviy tadqiqotlar esa texnologik jarayonni sinash natijasida, tajribalar o‘tkazish orqali olib boriladi.

Nazariy-tajribaviy usulda ham nazariy ma’lumotlar, ham tajriba natijalari e’tiborga olinadi, bu esa texnologik jarayonni chuqurroq o‘rganishga imkon beradi.

Nazariy-tajribaviy ilmiy ishlar quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Mavzuni tanlash va asoslash.
2. Tayyorgarlik bosqichi.
3. Texnologik jarayonni nazariy tahlil qilish.
4. Dastlabki tajribalarni tayyorlash va o‘tkazish
5. Asosiy tajribani o‘tkazish.
6. Matematik modellarini tuzish.
7. Nazariy va tajribaviy natijalarni tahlil qilish.
8. Xulosa va takliflar.

Tajribaviy usulda esa 3-bosqichdan tashqari yana boshqa bosqichlar amalga oshiriladi.

Qidiruv-tadqiqot ishlarida quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

1. Tayyorlash bosqichi.
2. Mavzuning nazariy qismini yaratish.
3. Modelni sinash, konstruksiyaga va texnologiyaga kerakli o‘zgartirishlar kiritish.
4. Maketlarni loyihalash va tayyorlash.
5. Dastlabki tajribani tayyorlash va o‘tkazish.
6. Asosiy tajribani o‘tkazish.
7. Nazariy-tajribaviy va sinash tadqiqotlarini tahlil qilish, ko‘rsatmalar berish.
8. Mashinani tajribaviy namunasini loyihalash uchun kerakli texnik ko‘rsatmalar berish.

Mavzu – bu ilmiy masala bo‘lib, tadqiqot talab qiluvchi muammolarning muayyan sohasini qamrab oladi. U ko‘plab tadqiqiy masalalarga muammoning aniq bir sohasiga taalluqli ancha mayda ilmiy masalalarga asoslanadi. Masalani hal etishda muayyan tadqiqot vazifasi yechiladi, masalan, yangi chang havo tarkibidan tolali chiqindilarni ushlab qolish uskunasini konstruksiya, ilg‘or texnologiya va hokazolarni yaratish. Bunda ularni bajarish faqat nazariy ahamiyat kasb etibgina qolmay, balki asosan ko‘tilayotgan muayyan iqtisodiy samaraga ega amaliy ahamiyat ham kasb etadi.

Muammo va mavzuni tanlash qiyin va mas’uliyatli ishdir, u bir necha bosqichda o‘z yechimini topadi.

Birinchi bosqichda, muammoviy vaziyatdan kelib chiqib, muammo ifoda etiladi va ko‘tilayotgan natija umumiy tarzda belgilanadi.

Ikkinci bosqichda, muammoning dolzarbligi, uning fan va texnika uchun ahamiyati aniqlanadi.

Uchinchi bosqichda, muammo tuzilmasi ishlab chiqiladi - mavzu, kichik mavzular, savollar va ular o‘rtasidagi bog‘liqlik farqlanadi. Natijada muammo mundarijasi shakllanadi.

Keyinchalik, muammolar asoslangandan, uning tuzilmalari ishlab

chiqilgandan so‘ng ilmiy xodim qoidaga kura ilmiy - tadqiqot mavzusini mustaqil tarzda tanlaydi.

Ilmiy - tadqiqot mavzusiga bir qator talablar quyiladi:

1. Mavzu dolzarb bo‘lishi, hozirgi paytda hal etishni talab qilishi zarur.

Fundamental tadqiqotlar bilan bog‘liq mavzular dolzarblik darajasini belgilash uchun hozircha tegishli mezonlar yo‘q. Shuning uchun, mazkur holda dolzarblikni yirik olim yoki ilmiy jamoa belgilaydi. Mavzuning amaliy tavsifiga kelsak, ularning dolzarbligi qoidaga kura ishlab chiqarish muayyan tarmog‘ining rivojlanish va iqtisodiy samaradorlik talablariga ko‘ra belgilanadi.

2. Mavzu yangi ilmiy masalani hal etishi va ilmiy yangilik tavsifiga ega bo‘lishi kerak.

3. Ilmiy mavzuga quyiladigan muhim talablar iqtisodiy samaradorlik va ahamiyatlilik hisoblanadi.

Amaliy tadqiqotlar bilan bog‘liq mavzular tanlash bosqichida taxminiy belgilanadigan iqtisodiy samara berishi lozim. Fundamental tavsifdagi mavzuni tanlashda iqtisodiy samaradorlik mezoni ahamiyatlilik mezoniga almashtiriladi.

4. Mavzu ilmiy yo‘nalishiga mos bo‘lishi kerak.

Bu ilmiy jamoa malakasi va vakolatidan tuliq ravishda foydalanishga imkon beradi. Natijada ishlanmaning nazariy darjasи, sifati va iqtisodiy samarasi oshadi, tadqiqotning bajarilish muddati qisqaradi.

5. Joriy etilish mavzuning muhim tavsifi hisoblanadi.

Mavzuni ishlab chiqaruvchilar uni rejadagi muddatda tugatilish imkoniyatini belgilashlari va buyurtmachining ishlab chiqarish sharoitlariga joriy etilishini aniqlashlari kerak. Ular tegishli ishlab chiqarishni, uning xozirgi vaqtidagi va kelgusidagi talablarini yaxshi bilishlari lozim.

Paxtaga dastlabki ishlov berish muammolarida quyidagi asosiy masalalar hal qilinadi:

1. Chigitli paxta tolalarini sifatini saqlash, jarayonni effektivligini oshirish, paxtaga dastlabki ishlov berish mashinalarini takomillashtirish va jarayonni

avtomatlashtirish maqsadida, nazariy-tajribaviy usul yordamida, texnologik jarayonining qonuniyatlarini aniqlash va mashina va mexanizmlarni optimal rejimlarini aniqlashdan iborat.

2. Yangi mashinalarni yaratish, tajribaviy usul yordamida ularni ishonchligini, uzoq ishlash vaqtini, ishlatishga qulayligini va chiqarilayotgan mahsulot sifatini aniqlash.

3. Texnologik jarayonlarni takomillashtirish va yangilarini yaratish ustida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari.

4. Texnologik jarayonni o‘rganish va ularni modellashtirish uchun yangi uslub va vositalarini yaratish.

#### **1.4. Tajribaviy tadqiqotlar**

Tajribaviy tadqiqot – bu yangi ilmiy bilimlar olishning asosiy usuli bo‘lib, nazariy qoidalarni tekshirishni, ilmiy - tadqiqot mavzusini yanada kengroq va chuqurroq o‘rganishni o‘zida mujassam etadi.

Tajribaviy tadqiqotlar laborotoriya va ishlab chiqarishda olib boriladi.

Laborotoriya tajribalari maxsus modellashtiruvchi qurilma, stendlarda namunaviy asboblar va tegishli uskunalarini qo‘llab o‘tkaziladi. Bular kam xarajat qilgan holda qimmatli ilmiy informatsiya olish imkonini beradi. Tajribaviy tadqiqotning bunday natijalari hamma vaqt xam jarayon yoki obyekt ishining borishini to‘liq aks ettira olmaydi.

Ishlab chiqarish tajribalari atrof muhit turli tasodifiy omillarini hisobga olgan holda mavjud sharoitlarda o‘tkaziladi. Bunday Tajribalar laborotoriyadagidan murakkab, tajriba naturasi (mavjud jarayon yoki obyekt) hajmdorligi oqibatida puxta fikrlash va rejalashtirishni talab etadi. Ekspluatatsiya qilinadigan obyektning turli dala sinovlari ham ishlab chiqarish tadqiqotlarga kiradi.

Tegishli metodika va shakl bo‘yicha tashkilotlar yoki muassasalardan,

korxonalaridan u yoki bu tadqiq etilayotgan masala bo‘yicha materiallar tuplash ishlab chiqarish Tajribalarining bir turi hisoblanadi.

Tajribaviy tadqiqotlarni samarali o‘tkazish uchun Tajriba uslubiyoti ishlab chiqiladi. U qo‘yidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- tajribaning dasturini ishlab chiqish;
- ulchamlarni baholash va tajriba o‘tkazish vositalarini tanlash;
- tajribani o‘tkazish;
- tajriba natijasida olingan ma’lumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish.

- tajriba dasturi – Tajribaviy tadqiqotlarning uslubiy asosi bo‘lib u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tadqiqot mavzulari ruyxati va ishchi gipoteza mazmuni;
- tajriba uslubiyoti va uni bajarish uchun zarur materiallar, asboblar, qurilmalar v.h.lar ruyxati;
- bajaruvchilar ro‘yxati va ularning kalendar ish rejasi;
- tajribani bajarish uchun harajatlar ro‘yxati.

Tajriba uslubiyoti – uslublar, Tajribaviy tadqiqotlarni maqsadga muvofiq usullari majmui. Umumiy tarzda u o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- tajriba maqsad va vazifasini;
- faktorlarni tanlash va ularning o‘zgarish darajasini;
- vositalar va ulhashlar zarur miqdorini asoslashni;
- tajriba mohiyati va tartibining bayonini;
- tajriba natijalarini ishlab chiqish va tahlil qilish usullarini asoslashni.

Tajribaning maqsad va vazifasi ishchi gipoteza va tegishli nazariy ishlanmani tahlil qilish asosida aniqlanadi. Vazifa aniq bo‘lishi, ularning soni uncha ko‘p bo‘lmasligi lozim: oddiy tajriba uchun – 3÷4, majmua tajriba uchun esa – 8÷10 ta.

Jarayon yoki obyektga ta’sir etuvchi faktorlarni tanlash qabul qilingan ishchi gipotezaga muvofiq nazariy ishlanmalarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Barcha faktorlar mazkur tajriba uchun avval muhimlik darajasiga ko‘ra saralanadi,

so‘ngra ulardan asosiyлари va yordamchilari ajratiladi.

Faktorlar soni uncha ko‘p bo‘lmaganda ularning muhimlik darajasi bir faktorli tajriba bo‘yicha aniqlanadi. Agar faktorlar soni katta bo‘lsa, ko‘p faktorlik tahlili qo‘llaniladi.

Ulhash vositalari Tajribaning maqsad va vazifasidan, o‘lchanadigan parametrlar tavsifi va talab etilayotgan aniqlikdan kelib chiqib tanlanadi. Qoidaga ko‘ra, standart, yalpi ishlab chiqiladigan ulhash vositalaridan foydalaniladi. Ayrim hollarda kamyob ulchovlar asbob va uskunalari bunyod etiladi.

Tajriba o‘tkazishning mazmun va tartibi – uslubiyotning markaziy qismi bo‘lib, unda tajriba o‘tkazish jarayoni to‘la qo‘yidagicha loyihalanadi:

- kuzatish va ulhash operatsiyalarini o‘tkazish ketma - ketlikda tuziladi;
- ekperiment o‘tkazishning tanlangan vositalarini hisobga olgan holda har bir operatsiya ayrim- ayrim mufassal tavsiflanadi;
- operatsiyalar sifatini nazorat qilishda qo‘llaniladigan usullar tasvirlanadi;
- kuzatish va ulhash natijalarini yozish uchun daftар tutiladi.

Tajribaviy ma’lumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish usullarini asoslash uslubiyotining muhim bo‘limi hisoblanadi.

Tajribalarning natijalarini namoyish etish ko‘rgazma shakliga keltirilishi lozim (jadvallar, grafik, nomogrammalar va h.k.). Toki ularni qiyoslash va tahlil qilish mumkin bo‘lsin. Alovida e’tibor ishlab chiqish matematik usuli – empirik bog‘liqlik, faktorlar va chiqish parametrlari o‘rtasidagi aloqa approksimatsiyasi, mezonlar, ishonchli intervallar o‘rnatish va boshqalarga qaratiladi.

Tajriba uslubiyoti ishlab chiqilgandan so‘ng Tajribaviy tadqiqot hajmi va mehnat talabligi aniqlanadi. Ular nazorat ishlanmalar chuqurligi va qabul qilingan ulhash vositalari tavsifiga bog‘liq. Tadqiqotning nazariy qismi qanchalik aniq ifodalangan bo‘lsa, Tajriba hajmi va mehnati shuncha kam bo‘ladi.

Tajriba ishlari tasdiqlangan dastur va tajriba uslubiyotiga muvofiq o‘tkaziladi. Tajribani boshlashdan oldin sinovlarni o‘tkazish uslubiyoti va ketma - ketligi aniqlanadi.

Tajribaviy tadqiqotlar o‘tkazish jarayonida qo‘yidagi qator asosiy qoidalarga rioya qilish lozim:

- Tajribachi ulhash natijalariga subyektiv ta’sirga yo‘l quymay tadqiq etilayotgan jarayon yoki obyekt parametrlarining barcha tavsifini to‘g‘ri qayd etishi lozim;
- Tajribachi extiyotsizlikka yo‘l qo‘yishi mumkin emas, chunki bu hol ko‘pincha katta xatolik va soxtalashtirishga, oqibatda tajribalarni takrorlashga olib keladi;
- Tajribachi ko‘zatish va o‘lchash daftarini albatta yuritishi kerak, uni taritibli va hech qanday tuzatishlarsiz to‘ldirib borishi lozim;
- Tajriba jarayonida boshqaruvchi ulhash vositalari ishini, ular to‘g‘ri ko‘rsatayotganligini va qurilma, jihoz, stend va hokazolar ishi barqarorligini, atrof muhit holatini muntazam ko‘zatishi, ish zonasiga begonalarini kiritmasligi shart;
- Tajribachi o‘lchov vositalarini, ular to‘g‘riligini nazorat qilgan holda ishchi tekshiruvini muntazam o‘tkazishi kerak;
- o‘lhashlar o‘tkazish bilan bir vaqtida bajaruvchi natijalarni dastlabki ishlab chiqish va tahlil qilishni o‘tkazishi lozim. Bu tadqiq etilayotgan jarayonni nazorat qilish, Tajribani to‘g‘rilash, uslubiyotni yaxshilash va tajriba samaradorligini oshirishga imkon beradi;
- Tajribachi texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi va yong‘inni oldini olish bo‘yicha yo‘riqnomalar talabiga amal qilishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan barcha qoidalarga ayniqsa ishlab chiqarish tajribaini o‘tkazayotganda amal qilish shart.

## **1.5. Ilmiy axborotlarni tahlil qilish**

Har qanday ilmiy – tadqiqot o‘tkazilishi mo‘ljallanadigan yo‘nalishga bag‘ishlangan ilmiy – texnikaviy informatsiyalarni izlashdan boshlanadi.

Quyidagi hujjatlar ilmiy – texnikaviy informatsiya manbai hisoblanadi:

- kitoblar (darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalar, elektron adabiyotlar);
- davriy matbuot (jurnallar, byulletenlar, institatlardagi ishlari, ilmiy to‘plamlar);
- meyoriy hujjatlar (standartlar, texnikaviy shartlar, yo‘riqnomalar, meyoriy jadvallar va h.k.);
- kataloglar;
- ixtiro hujjatlari;
- ilmiy - tadqiqotlar va tajribaviy konstruktorlik ishlari haqidagi hisobotlar;
- informatsion nashrlar;
- xorijiy ilmiy – texnikaviy adabiyotlarning tarjima va asl nusxalari;
- dissertatsiyalar va avtoreferatlar;
- ilmiy - texnikaviy konferensiyalar va ishlab chiqarish yig‘ilishlarining ilmiy - texnikaviy materiallari;
- ikkilamchi hujjatlar (referativ sharhlar, bibliografik katalog, referativ jurnallar va boshqalar).

Sanab o‘tilgan hujjatlar ulkan informatsiya oqimini hosil qiladi, uning sur’ati yildan yilga oshib boradi. Bunda yuqorilama va qo‘yilama axborot oqimi bir - biridan farqlanadi.

Informatsiyaning yuqorilama oqimi ijrochilar (ilmiy tadqiqot ishlari, Oliy o‘quv yurtlari, tajriba konstruktorlik ishlari va boshqalar) dan qayd etuvchi idoralarga tomon yo‘naladi, qo‘yilama oqim esa bibliografik, referativ sharhlar va boshqa ma’lumotlar ko‘rinishida ijrochilarga ularning talabiga ko‘ra yo‘naladi.

Yangi ilmiy va ilmiy - texnikaviy ma’lumotlar jadal usib borishi munosabati bilan informatsiya «eskiradi». Chet ellik tadqiqotchilar ma’lumotiga ko‘ra, informatsiya qiymatining pasayish jadalligi taxminan bir kunda gazetalar uchun 10%, bir oyda jurnallar uchun 10% va kitoblar uchun bir yilda 10% ni tashkil etadi. Shuning uchun ulkan informatsiya oqimida yangi, ilg‘or, muayyan mavzuni – masalani hal qilishda ilmiy yunalishni tanlash faqat bitta ilmiy xodim uchungina

emas, balki katta jamoa uchun ham murakkabdir.

Informatsiya oqimi - tanlangan mavzuni ishlab chiqish uchun zarur hujjatlarni izlash bo'yicha operatsiyalar majmui. U qo'lda, mexanik tarzda, mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Qo'lda izlash odatdagi bibliografik varaqchalar, kartochkalar va nashr ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi. Mexanik izlashda informatsiya yetkazuvchi perfokartalar hisoblanadi. Mexanizatsiyalashtirilgan izlash hisobi perforatsion mashinalarni, avtomatlashtirilgani esa EHMni qo'llashga asoslangan.

Informatsiyaviy izlash sistemalarida informatsiyaviy izlash tilining turli talqinlari qo'llaniladi.

Optimal natijaga erishish uchun izlash zarurdir, chunki bunda u yoki bu darajada mavzuni ishlab chiquvchining o'zi ishtirok etadi. Izlashni amalga oshira borib, ishlab chiquvchi izlash ko'lamenti bamisolli tadqiq etadi va o'z informatsiyaviy so'rovi ifodasini aniqlaydi.

Ilmiy – texnikaviy informatsiyani o'rganish va tahlil qilish – masalani mavzu bo'yicha ahvolini yoritish, ilmiy - tadqiqot maqsadi va vazifasini isbotlash uchun asosdir.

Informatsiya samarali ishlab chiqilishiga erishish (o'rganish, yodda saqlab qolish va tahlil) uchun bir qator shartlarga amal qilish kerak.

Birinchi shart bu – aniqlash, ya'ni o'qishning maqsadini belgilash hisoblanadi. Bu psixologik omil tafakkurni faollashtiradi, o'rganilayotganni tushunishga yordamlashadi, idroklashni aniqlashtiradi. Mazkur holda ilmiy xodim o'zini «muayyan to'lqinga» sozlaydi.

Keyingi shart bu – ilhomlanish. U ilmiy yondoshishga asoslanadi va informatsiyani ishlab chiqarish samarasini oshiradi.

Informatsiyani sifatli ishlab chiqishni ta'minlash uchun diqqat va fikrni bir joyga to'plash zarur. Ishlab chiqish jarayonida asab ko'zatuvchilar (shovqin, gaplashishlar, xususiy fikr va boshqalar) ni bartaraf etish zarur, chunki bular e'tiborni chalg'itadi va tezda toliqishga olib keladi.

Informatsiya ustida muvaffaqiyatli ishslashning muhim omili mehnat mustaqilligi hisoblanadi.

Adabiyotlarni o‘rganishda qat’iyat va muntazamlik ancha muhim shartlardan hisoblanadi. Ayniqsa bu narsa murakkab va qiyin yangi matnni o‘qishda zarurdir. Materialni to‘liq tushunishga erishish uchun o‘qish va qayta o‘qishga to‘g‘ri keladi.

Axborotni ishlab chiqish samaradorligi aqliy ishlay olish qobiliyatiga bog‘liq. Uning oshishi uchun to‘g‘ri ish tartibi muhim shart hisoblanadi. 1-2 soatlik aqliy mexnatdan so‘ng 5-7 daqiqa tanafus qilish, jismoniy mashqlarni bajarish, chuqur kuchli nafas olish va boshqalarni bajarish tavsiya etiladi. Bu markaziy nerv sisitemasini rag‘batlantiradi va ishslash qobiliyatini oshiradi.

Ilmiy – texnikaviy axborotni ishlab chiqishda kuchirma, annotatsiya va konseptlar qo‘llaniladi.

Kuchirma – axborot ayrim qismlarining qisqa (yoki to‘liq) mazmuni. Ularning qiymati juda yuqori, chunki ular kichik hajmda ko‘pgina informatsiya to‘plashga imkon beradi va keyingi ijodiy ish uchun asos hisoblanadi.

Annotatsiya – birinchi manba informatsiyasining qisqacha mazmuni. Ular yordamida matnni xotirada tezda tiklash mumkin bo‘ladi.

Konsept – u yoki bu birinchi manbadagi informatsiya mazmunining to‘liq bayoni. U mazmunga ko‘ra to‘liq hamda hajmga ko‘ra iloji boricha qisqa bo‘lishi kerak. Konseptni o‘z so‘zlari bilan tuzish kerak, bu o‘qilganni anglash va tahlil etishni talab qiladi va shu bilan ijodiy ishga katta foyda keltiradi.

Ishlanayotgan informatsiyani eslab qolishning turli usullari mavjud: mexanik, mazmuniy, ixtiyoriy, g‘ayriixtiyoriy.

Mexanik usul o‘qilganni ko‘plab takrorlash va qayta o‘qishga asoslangan. Mazkur holda eslab qolinayotgan informatsiya ayrim unsurlari o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik bo‘lmaydi. Shuning uchun u kam samarali va asosan sana, formula, chet so‘zlar va hokazolarni eslab qolish uchun qo‘llanadi.

Ma’noviy usul ishlanayotgan informatsiya ayrim unsurlari o‘rtasidagi

mantiqiy bog‘liqlikni eslab qolishga asoslangan. O‘qishda ayrim unsurlarnigina emas, balki yaxshi matnni, uning mazmuni va ahamiyatini tushunish zarur. Eslab qolishning bu usuli mantiqiy – ma’noviy hisoblanadi, buning natijasida u mexanik usuldan ko‘p marta samaraliroqdir.

Ixtiyoriy usulda eslab qolish turli assotsiatsiya qonunlari bilan bog‘liq bo‘lgan mexanik yo‘llarga asoslanadi.

G‘ayriixtiyoriy usul o‘qish jarayonida hissiyotga ko‘ra yuzaga kelgan emotsiya bilan bog‘liq matnning u yoki bu parchasini tasodifan eslab qolishga asoslangan.

Shuni ta’kidlash joizki, ishlanayotgan informatsiyani eslab qolishning universal usuli yo‘q. Amalda, ko‘pincha, usullar majmuidan informatsiyaning u yoki bu qismi tavsifiga bog‘liq holda foydalilanadi.

Tahlil jarayonida ham informatsiya manbaini, ham ulardagি informatsiyani tasniflash va sistemalashtirish zarur. Manbalarni ikki hil sistemalashtirish mumkin: xronologik tartibda va mavzu bo‘yicha.

Birinchi holda barcha informatsiya mavzu bo‘yicha ilmiy bosqichga kura sistemalashtiriladi, bular uchun sifat saqlashlari xosdir. Keyin har bir bosqichda tegishli manbalar e’tibor bilan tanqidiy tahlil qilinadi. Buning uchun yuqori darajada eruditsiya va bilimga ega bo‘lish zarurdir.

Ikkinci holi (mavzuli tahlil) da informatsiyaning butun hajmi ishlab chiqilayotgan mavzu masalalari bo‘yicha sistemalashtiriladi. Bunda katta e’tibor ilmiy – texnikaviy informatsiya so‘ngi nashrga qaratiladi, ularda mazkur masala tadqiqoti yakuni keltirilgan bo‘lishi mumkin. Keyinchalik tanlov asosida alohida qiziqish tug‘dirgan boshqa manbalar tahlil etiladi.

Informatsiyani tahlil etishning ikkinchi talqini sodda va kam vaqt talab qiladi. Shu bilan birga mazkur talqin bo‘yicha mavzuning tuliq bo‘lmagan informatsiya hajmi tahlil etiladi.

Ishlab chiqish (o‘rganish, eslab qolish va tahlil) natijalari bo‘yicha ilmiy – texnikaviy informatsiya belgilanadi:

- dolzarblik va mavzuning yangiligi;
- mavzu bo'yicha nazariy va tajribaviy tadqiqotlar sohasidagi so'nggi yutuqlar;
  - ilmiy - tadqiqotning maqsad va vazifalari;
  - mavzu bo'yicha ishlab chiqarish tavsiyalari;
  - ilmiy ishlanmalarining texnikaviy, iqtisodiy va ekologik maqsadga muvofiqligi.

## **1.6. Ilmiy tadqiqot ishlari to'g'risidagi hisobotlarni rasmiylashtirish**

Ilmiy tadqiqot ishlari tug'risidagi hisobotlarni rasmiylashtirish umumiy talablari, shakli va qoidalari qabul qilingan mezonlarda belgilangan.

Ilmiy tadqiqot ishlari hisobotlariga qo'yidagi talablar qo'yiladi:

- *tuzilishning aniqligi;*
- *materiallarni bayon qilishning mantiqiy ketma - ketligi;*
- *dalillashning ishonchliligi;*
- *ifodalashning qisqa va aniqligi;*
- *ish natijalari bayonining aniqligi;*
- *xulosalarning isbotlanishi va tavsiyalarning asosliligi.*

Hisobotlarni rasmiylashtirish umumiy talablari va qoidalari "ilmiy tadqiqot ishlari to'g'risidagi hisobot" bo'yicha Davlat standarti 7.32-91 da berilgan.

Ilmiy tadqiqot ishlari haqidagi hisobot qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:

- bosh varaq;
- bajarilgan ishlarning qisqacha mazmunli bajaruvchilar ro'yxati;
- referat;
- mundarija;
- qisqartmalar, belgilar va maxsus terminlar ro'yxati, zarur holda ularga tushuntirish beriladi;

- asosiy qism;
- adabiyotlar ro‘yxati;
- ilova.

**Referat** o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlari asosiy mazmunini ifodalash kerak, unda hisobotning hajmi, tasvirlar miqdori va tavsifi, jadvallar miqdori, hisobot yozilgan til, asosiy so‘zlar ro‘xati va referat matni haqidagi ma’lumot bo‘lishi lozim.

Referat matni qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi:

- *bajarilgan ish mohiyatni va tadqiqot usulini ifodalovchi asosiy qism;*
- *referat asosiy qismi mazmunini ochib beruvchi aniq ma’lumotlar;*
- *olingan natijalarining o‘ziga xosligi, samaradorligi, qo’llanilishi mumkin bo‘lgan sohalarga taalluqli qisqacha xulosalar.*

Referatning eng maqbul hajmi 110-120 bosma belgi. Hisobotning asosiy qismi qo‘yidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

- kirish;
- analitik sharx (masalaning qo‘yilishi);
- ishning tanlangan yo‘nalishini asoslash;
- bajarilgan ish metodikasi, mazmuni va natijalarini ifodalovchi hisobot bo‘limlari;
- xulosa (xulosa va takliflar).

**Kirish** ish bag‘ishlangan ilmiy - texnikaviy muammoning zamonaviy ahvolini, shuningdek ishni maqsadini qisqacha tavsiflash kerak. Kirish qismida tavsiflanayotgan ishdagi yangilik va dolzarblik nimadan iboratligini bayon etish va uni o‘tkazish zarurligini asoslash zarur.

**Analitik sharxda** tadqiqotni metodikasi va hal etish vositalari bo‘yicha adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar, ilmiy tadqiqot ishlari oldida turgan masalani yangicha hal etish yo‘llari bayon qilinishi lozim. Ishning tanlangan yo‘lini asoslash boshqa mumkin bo‘lgan yo‘nalishlarga taqqoslash bo‘yicha afzalliklariga

asoslanadi. Ilmiy tadqiqot ishni tanlangan yo‘nalishi va ishchi gipoteza ilmiy tadqiqot ishlarini o‘tkazish aniq shartlarini hisobga olgan holda analitik sharxda mavjud bo‘lgan tavsiyalarga asoslanishi kerak. Ilmiy tadqiqot ishlarining tanlangan yo‘lini asoslash ishning maqsadga muvofiqligi (yoki zarurligi)ni asoslash bilan almashtirmasligi kerak. Ilmiy tadqiqot ishlarida tanlangan yo‘nalishi tegishli topshiriqlar bilan asoslanmasligi lozim.

Bajarilgan ish metodikasi, mazmuni va natijalarni ifodalovchi hisobotning qismlari barcha oraliq va yakuniy natijalar, shu jumladan salbiylari bilan birgaliqda to‘la va tadrijiy tarzda bayon etilishi kerak.

**Tadqiqot metodikasi** tadqiqot o‘tkazish metodologiyasini tanlashni asoslanishini, bunda foydalanilayotgan yoxud ishlab chiqilayotgan texnikaviy vositalar, matematik yoxud tadqiqot natijalarini ishlab chiqishning boshqa metodini asoslangan informatsiyaning tegishli manbaiga havola qilingan holda o‘z ichiga olishi kerak.

Mazmun va bajarilgan ish natijalari qismida qo‘yidagilar ko‘rsatilishi lozim: maqsad, muayyan eksperimentlar programmasining, ular mohiyatining tavsifi; olingan ma’lumotlar aniqligi va ishonchligi baholanishi hamda nazariy ma’lumotlar bilan taqqoslanishi. Bunday taqqoslash bo‘limganda u hol asoslanishi kerak. Olingan natijalar ta’kidlanishi va ularni qo‘llanilish imkoniyati tavsiflanishi zarur.

**Ilovada** asosiy matnga qo‘shilganda ko‘p joyni egallaydigan qo‘shimcha materiallar beriladi. Qo‘yidagilar ana shunday materiallar hisoblanadi:

- oraliq matematik qistirmalar va hisob - kitoblar;
- yordamchi raqamli ma’lumotlar jadvali;
- sinov bayoni va hujjatlari;
- eksperiment o‘tkazishda qo‘llanilgan apparatlar va priborlar tavsifi, o‘lchashlar va sinashlar;
- joriy texnikaviy yechimlar yo‘riqnomasi, metodikasi, tavsifi, qo‘shimcha tarzdagi tasvirlar va h.k.

Matn qismi, tasvirlar, jadval va formulalar ilmiy tadqiqot ishi haqidagi hisobotni rasmiylashtirish qoidalariga bo‘lgan meyoriy talablarga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Hisobotda beriladigan tasvirlar miqdori mazmuniga ko‘ra belgilanadi va bayon etilayotgan material ravshan va aniq bo‘lishi uchun yetarli miqdorda berilishi lozim. Tasvirlar shunday tayyorlanishi kerakki, qismlari va yozuvlar sifatli reproduksiya yoki kompyuterda aks ettirish imkonini ta’minlaydigan bo‘lishi lozim. Mikrofilmi tayyorlanishi zarur bo‘lgan hisobotlar uchun shtrixli tasvirlar va fotosuratlarni asl nusxasi qo‘sishimcha qilinishi kerak. Nusxa va rangli rasmlar qo‘shilmaydi.

Barcha tasvirlar (fotografiya, tarxlar, chizmalar va boshqalar) rasmlar deb ataladi. Rasmlar har bir qism ichida arab raqamlari bilan tadrijiy ravishda raqamlanadi. Rasm raqami bob tartib raqami va rasm tartib raqamidan iborat, bir-biri bilan nuqta yordamida ajratilgan bo‘lishi kerak. Masalan, «2.01 - rasm» (ikkinchi bob, birinchi rasm).

Hisobot matnida rasmga havola qilinganda uning aniq tartib raqamini ko‘rsatish kerak, masalan «2.01 - rasm», «2.02 - rasm». Ayni bir rasmga takror havolaga yo‘l qo‘yiladi. Bunda havola qisqartma so‘z «qrng» bilan beriladi, masalan, «qrng. 2.01 - rasm», «qrng. 3.02 - rasm».

Rasmlar ularga matnda havola qilingandan so‘ng hisobot tekstida ketma-ket joylashtiriladi. Rasmlarni shunday joylashtirish kerakki ularni hisobotni varaqlamay ko‘rish mumkin bo‘lsin. Agar rasmlarni bunday joylashtirish imkonи bo‘lmasa, ularni shunday joylashtirish lozimki, toki hisobotni soat strelkasi bo‘ylab aylantirish mumkin bo‘lsin. Hisobotda A<sub>4</sub> formati hajmidan katta bo‘lgan rasmlarni berish tavsiya etilmaydi.

Har bir rasm batafsil tavsifiy yozuvga ega bo‘lishi lozim. Ostyoziuv rasm tartib raqami bilan bir qatorga qo‘shib joylashtiriladi. Rasmdagi yozuvlar hisobotdagи barcha rasmlar hajmi bo‘yicha bir xil shriftda bajariladi. Hisobotlardagi ilmiy tadqiqotning raqamli materiallari jadval tarzida

joylashtiriladi. Har bir jadval tavsifyi sarlavhaga ega bo‘lishi kerak. Jadval yuqorisida «jadval» va uning tartib raqami joylashadi. Jadval tartib raqami xuddi rasmdagi kabi bo‘ladi. Sarlavha «jadval» so‘zidan yuqorida joylashadi. «Jadval» so‘zi va sarlavha yozma harflarda yoziladi. Jadval grafalari sarlavhasi katta harflarda yoziladi, sarlavhachalar esa kichik harflarda.

Hisobot matnida zarur hollarda formulalar joylashtiriladi. Formulalardan so‘ng simvollar, koefitsiyentlar va boshqa eksplikatsiyalarga tushuntirish beriladi. Eksplikatsiyalarda simvollar va raqamli koefitsiyentlar qiymati formula tagidan ular formulada qanday tartibda berilgan bo‘lsa xuddi shunday tartibda keltiriladi. Har bir simvol va raqamli koefitsiyentni qiymati yangi qatordan berilgani ma’qul. Eksplikatsiyaning birinchi satri «bunda» so‘zi bilan boshlanadi. Bu so‘zdan keyin ikki nuqta qo‘yilmaydi.

Formula oxirida yoki nuqta, yoki vergul qo‘yiladi. Eksplikatsiya keltirilayotgan holdagina vergul qo‘yiladi.

Formulalar bob ichida arab raqamlari bilan tartiblanadi. Formulaning tartib raqami bob tartib raqami va formulaning tartib raqamidan iborat bo‘lishi kerak. Har ikkala tartib raqami nuqta bilan ajratiladi va qavs ichida beriladi. Masalan, «(1.02)» (birinchi bob ikkinchi formula). Formula tartib raqami sahifaning o‘ng tomonida formulaning qo‘yidagi qatori bilan bir xil satrda beriladi. Matnda formulaga havola qilinganda uning aniq tartib raqami qavs ichida berilishi zarur, masalan: «(1.02) formulada».

Hisobotga adabiyotlar ro‘yxati ilova qilinadi. Ro‘yxatga barcha foydalaniladigan manbalar kiritiladi.

Monografiyalar, maqolalar, standartlar, kashfiyotlar, ma’ruza tezislari, gazetadagi maqolalar, ilmiy tadqiqot ishlari hisobotlari, deponentlangan materiallar, kataloglar va boshqa materiallar haqidagi ma’lumot OAKning 1985 yil 5 - sonida e’lon qilingan talablarga muvofiq rasmiylashtiriladi.

**Rezyume.** Ilmiy tadqiqot ishlari to‘g‘risidagi hisobotlarni rasmiylashtirish qabul qilingan mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi. Hisobotlar o‘z ichiga

qo‘yidagilarni olishi kerak: bosh varaq, bajaruvchilarning ular bajargan ishlar qisqacha mazmuni berilgan ro‘yxat, referat, sarlavha, qisqartmalar ro‘yxati, simvollar va maxsus terminlar, asosiy qism, adabiyotlar ro‘yxati va ilova. Metodikani ifodalovchi, bajarilgan ishning mazmuni va natijalari haqidagi hisobotning qismlari to‘liq va tadrijiy tarzda barcha oraliqva yakuniy natijalar, shu jumladan salbiylari bilan birga bayon etilishi kerak.

### **1.7. Ilmiy materiallarni nashrga tayyorlash**

Ilmiy materiallarni nashr qilish - ilmiy xodim, ilmiy muassasa yoki korxona jamoasi bajaradigan ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari natijalariga mualliflik huquqini oshkora himoya qilish shakllaridan biri.

Ilmiy materiallarni nashr qilish yoki oshkora yoki yopiq tarzda amalga oshirilishi mumkin. Ochiq matbuotda muayyan talablarga zid bo‘lmagan ishlar e’lon qilinadi.

Ilmiy materiallar qo‘yidagi ko‘rinishda e’lon qilinishi mumkin:

- *monografiya;*
- *vaqtli jurnaldagi maqola;*
- *oliy o‘quv yurti, ilmiy tadqiqot ishlari asarlari to‘plamidagi, xalqaro, soha va boshqa xil konferensiyalardagi to‘plamidagi maqola;*
- *rasmiy kengash va konferensiyalarning dokladlari tezisi;*
- *reformativ jurnallardagi maqola;*
- *davlat qaydnomasiga ega ilmiy tadqiqot ishlari bo‘yicha hisobotlar;*
- *kashfiyat va ochilgan yangilikka potentlar;*
- *respublika ilmiy - texnikaviy kutubxonalarda deponentlangan ishlar;*
- *gazetadagi maqolalar.*

Ilmiy materiallarni nashrga tayyorlash o‘z ichiga qo‘yidagi bosqichlarni oladi:

- *ilmiy materialni nashr qiluvchi noshir qo‘ygan talablarni o‘rganish;*
- *tanlangan ilmiy ish bo‘limi mazmunini yozma bayon qilish;*
- *sof patentlikka ko‘ra maqola mazmunini tekshirish;*
- *ochiq matbuotda e’lon qilish uchun maqolani ekspertizadan o‘tkazish, kashf etish, yangilik yaratish unsurlarini yo‘qligi;*
- *maqolani ichki va tashqi taqrizga berish;*
- *maqolani noshirga topshirish.*

Ilmiy materiallarni rasmiylashtirish talabi material turiga bog‘liq va u qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi:

- *qog‘oz va uning hajmiga bo‘lgan talab;*
- *chap, o‘ng tomonidan, yuqori quyidan qoldiriladigan ochiq joy hajmi;*
- *sahifalarga tartib raqamlarini qo‘yish;*
- *rasmiylashtirish muharriri;*
- *jadval va rasmlarni berilishiga talablar;*
- *bosish shrifti va intervali;*
- *bayon etilish tili;*
- *boshqa tildagi annotatsiyalarga bo‘lgan talab.*

Nashr etilayotgan ilmiy material kirish qismidan amalda bayon etilayotgan ilmiy material mazmuni va bayon qilinayotgan mavzu bo‘yicha xulosadan iborat bo‘lishi kerak. Agar muallif ma’lum ilmiy ishlarga havola qilsa yoki ulardan foydalansa ular adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilishi kerak.

Muallif **patent** sofligiga ilmiy maqola mustaqil tekshiruvini amalgalashirishi, buni maqolani nashirga tayyorlash jarayonida bajarish kerak. Patent sofligiga ko‘ra tekshiruv o‘z ichiga prototiplar va analoglarni topish, farqli tomonlarni belgilashni oladi.

Har bir nashrga **ekspertiza dalolatnomasi** tuziladi. Buni mazkur ish bajarilgan tashkilot tuzadi, ochiq matbuotda e’lon qilish imkonini va mazmuni tegishli xulosa beradi.

E'lon qilishga taqdim etilayotgan ilmiy materialga ayrim hollarda **taqriz** talab qilinadi. Taqriz ichki yoki tashqi bo'lishi mumkin. Ichki taqriz ish bajarilgan tashkilot mutaxassis tomonidan beriladi. Tashqi taqriz esa boshqa tashkilot mutaxassis tomonidan yoziladi.

Shuni ta'kidlash joizki, ishlab chiqarish bosqichida bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarining materiallari, agar tugallanmagan va muayyan aniq xulosalar yoki yakunga yetmagan bo'lsa e'lon etish uchun tavsiya qilinmaydi.

## **II - BOB. TEKNOLOGIK JARAYONLARNI MATEMATIK KO'RINISHDA IFODALASH**

### **2.1. Matematika modellar haqida asosiy tushunchalar**

«Model» lotincha modulus so‘zidan olingan bo‘lib biror obe’kt yoki obyektlar tizimining obrazi yoki namunasidir. Modelashtirish bu biror “*A*” obyektni boshqa “*B*” obyekti bilan almashtirishdir. Bu yerda “*A*” obyekti orginal yoki modellashtirish obyekti, uni almashtiruvchi “*B*” esa model deyiladi. Boshqa so‘z bilan aytganda model-bu asil obyektning unga almashtirilgan shunday obyektidir, u asil obyektning ayrim xossalarni o‘rganishni ta’minlab beradi. Masalan, yerni modeli - globus, osmon va undagi yulduzlar model-planetalar ekani, paspordagi so‘ratni shu pasport egasining modeli deb qarash mumkin.

Model sifatida uning muhim hususiyatlarini, u bo‘ysinadigan qonuniyatlar, uning tarkibiy qismlarni orasidagi bog‘liqlik va buni matematik shakilda aks etiradigan obyektning “ekvivalenti” tushiniladi.

Modellash bu biror “*A*” obyektni boshqa obyekt bilan almashtirishdir. Modellashtirishdan maqsad tashqi muhit va o‘zaro aloqada bo‘lgan obyektlar haqidagi ma’lumotlarni olish, ishlatish, tasvirlash va qayta ishlashdir. Bu yerda model esa obyekt holati, xossalari va qonuniyatlarini o‘rganish uchun vosita sifatida ishtirop etadi.

Barcha modellarni ikki sinfga ajratish mumkin:

- 1 Moddiy (fizik);
- 2 Ideal.

Ideal modellarni esa quyidagilarga ajratish mumkin:

- 1 Aniq (grafikli);
- 2 Belgili;

### 3 Matematik.

Moddiy tabiiy model-bu real obyekt, jarayon va tizimlar bo‘lib, ular ustida har xil ilmiy, texnik va ishlab chiqarish tajribalari o‘tkaziladi. Moddiy fizik model-maketlar, orginal fizik xossasining nusxalaridir (kinamatik, dinamik, gidravlik, issiqlik, elektrik, yorug‘lik modellari).

Ideal aniq model - sxemalar, kartalar, chizmalar, grafiklar, analog, strukturali va geometrik modellardir.

Ideal belgili model bu simvollar, alfavit, dasturlash tili, tartiblangan yozuv, topologik yozuv, tarmoqli tasviflashdir.

Ideal matematik model - analitik, funksional, imitatsion, kombinerlashgan modellardir.

To‘qimachilik, paxtachilik va yengil sanoat texnologik jarayonlari murakkab jarayonlar bo‘lib, ular bir-biri bilan bog‘langan ko‘p faktorlarning o‘zgarishlariga bog‘liqdir. Shuning uchun bu jarayonlarni ilmiy tadqiqot qilish matematik modellar asosida amalga oshiriladi.

Umumiy holda matematik modellarni quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin:

$$Y = F(X)$$

bu yerda:  $Y(y_1, y_2, \dots, y_k)$  - chiquvchi faktorlar bo‘lib, jarayonning o‘rganilayotgan xususiyatlari,

$X(x_1, x_2, \dots, x_k)$  - kiruvchi faktorlar bo‘lib, jarayonga ta’sir etuvchi parametrlari,

$F$ - operator (funksiya) bo‘lib chiquvchi faktorni kiruvchi faktorlarga nisbatan bog‘lanishini ifodelaydi.

Matematik model ko‘rilayotgan texnologik jarayonni adekvatligini ifodelaydi, agarda berilgan aniqlikda jarayonni o‘zgarishini aniqlasa.

Matematik modelashtirish intellektual yadrosini «model-algoritm-dastur» uchligi tashkil etadi.

Matematik modellashtirish barcha modellar ichida eng universal modelashtirishdan biri bo‘lib, fizik modelni tuzmasdan turib, obyekt holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish imkonini beradi va eng effektiv eng qimmatlidir. Matematik modellashtirish real obyektni, jarayoni yoki sistemani matematik modelga almashtirish yo‘li bilan o‘rganadigan, hamda kompyuter yordamida tajriba tadqiqotlarni o‘tkazish uchun qulay vositadir.

Matematik model real obyekt, jarayon yoki tizimning matematik terminlarda ifodalangan va uning mavjud belgilarini ifodalovchi unga taqriban yaqin bo‘lgan nusxasidir. Modelning taqrifiylig xarakteri turli ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, tajriba o‘tkazish mobaynida foydalangan asboblarning aniqligi, olinayotgan natijaning aniqligiga ta’sir etadi. Matematik model mantiqiy matematik konstruksiyalar yordamida sanoqli formada obyekt, jarayoni yoki tizimning asosiy xossalari ifodalaydi, bundan tashqari uning paramentlarini, ichki va tashqi aloqallarni ham tasvirlaydi.

Matematik modelni qurish prinsip quyidagilarga asoslanadi:

1. Analitik;
2. Imitatsion.

Analitik modelda real obyekt, jarayon yoki sistemalar aniq funksional bog‘lanishlar ko‘rinishda yoziladi. Analitik model matematik muammoga bog‘liq ravishda quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Tenglama (algebraik, transsident, differensial, integral).
2. Approksimatsiya masalalari (interpolyatsiya, ekstrapolyatsiya, sonli integrallash va differensiallash).
3. Optimallash masalalari.
4. Stoxastik muommolari.

Obyektni modellashtirishda uning murakkabligi ko‘p hollarda analitik modelni qurishda qiyin muommolarni keltirib chiqaradi. Bunday hollarda tadqiqotchi imitatsion modellashtirishni ishlatishga majbur bo‘ladi.

Xususiyati bo‘yicha modellar **ehtimolli (Stoxastik)** yoki **determinlashgan**

modellar bo‘lishi mumkin. Ehtimolli quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

a) Agar chiquvchi faktor tasodifiy, kiruvchi faktor esa tasodifiy bo‘lmasa, bunday modellarga regression modellar deyiladi. Regression modellar tajriba natijalarini qayta ishlash natijasida qurilib, algebraik funksiyalarni turli xillaridan foydalaniлади.

b) Agar kiruvchi va chiquvchi parametrlar ma’lum bir qonuniyat bo‘yicha o‘zgaruvchi tasodifiy miqdorlarni ifodalasa, bunday modellarga korrelyatsion modellar deyiladi. Masalan, chiquvchi parametrlarning o‘rtacha qiymatlari bo‘yicha qurilgan matematik modellar.

**Determinallashgan** modellarda kiruvchi parametrlarning tasodifiy xususiyatlari inobatga olinmaydi, chiquvchi parametr esa operator va faktorlar orqali bir qiymatli aniqlanadi. Bu modellarni qurishda algebraik, Differensial, integral va boshqa tenglamalardan foydalaniлади. Determinallashgan modelda har xil tasodifiy ta’sirlar yo‘q, model elementlari (o‘zgaruvchilar, matematik bog‘lanishlar) yetarlicha aniq qo‘yilgan va sistema holatini aniq ifodalash mumkin deb faraz qilinadi.

**Stoxastik** model o‘rganilayotgan obyekt va sistemada tasodifiy xarakterdagи jarayonlarni hisobga oladi va ularda ehtimollar nazariyasi va matematik statistika usullaridan foydalaniлади.

Kiritiladigan ma’lumotlar turiga qarab modellar quyidagilarga bo‘linadi:

## **1. Uzluksiz**

## **2. Diskret**

Agar ma’lumotlar va parametrlar uzluksiz bo‘lib, matematik aloqalar (bog‘lanishlar) turg‘un bo‘lsa, u holda matematik model uzluksiz bo‘лadi.

Agar ma’lumotlar va parametrlar diskret bo‘lib, matematik aloqalar (bog‘lanishlar) turg‘un bo‘lsa, u holda matematik model diskret bo‘лadi.

Vaqtni hisobga olgan holda model holati bo‘yicha modellar quyidagilarga bo‘linadi:

## **1. Statistik**

## 2. Dinamik.

Agar kiruvchi parametrlar  $X$  yoki funksiya  $F$  argumentlarga bog‘liq bo‘lmasa, bunday model statistik model, aks holda, ya’ni, argumentlarga bog‘liq bo‘lsa, dinamik model deyiladi. Statistik modellar algebraik tenglamalar sistemasi ko‘rinishida berilsa, bitta argumentga bog‘liq bo‘lgan dinamik modellar oddiy Differensial tenglamalar ko‘rinishida, ko‘p argumentli dinamik modellar esa xususiy hosilali Differensial tenglamalar ko‘rinishida beriladi.

Statistik modellar ma’lum bir vaqt ichida obyekt, jarayon yoki sistema holatini ifodalaydi. Dinamik modellar obyekt jarayon yoki sistema holatini vaqt bo‘yicha aks ettiradi.

**Modelning chiziqlilik xossasi.** Matematik model **chiziqli** deyiladi, agarda funksiya chiziqli bo‘lsa:

$$F(x + \Delta x) = F(x) + F(\Delta x)$$

aks holda model **chiziqli emas** deyiladi.

Masalan:


$$Y_R = b_0 + b_1 x_1 + \dots + b_i x_i + \dots + b_m x_m$$

- chiziqli model,

$$\begin{aligned} Y_R = & b_0 + b_1 x_1 + \dots + b_i x_i + \dots + b_m x_m + b_{12} x_1 x_2 + \\ & + \dots + b_{ij} x_i x_j + \dots + b_{m-1,m} x_{m-1} x_m \end{aligned}$$

- chiziqsiz modelga misol bo‘la oladi.

Matematik modellarni bajarish ketma – ketligi va matematik model tuzish bosqichlari quyidagi sxemada keltirilgan:



Shunday qilib, modellashtirishning asosiy mazmunini obyektni dastlabki o‘rganish, asosiy modelni tajriba orqali va nazariy tahlil qilish, natijalarni obyekt haqidagi ma’lumotlar bilan taqoslash, modelni uzatish va shu kabilar tashkil etadi.

## **2.2. Modellarni qurish usullari**

Ma’lumki matematik modellar nazariy (anatlitik), tajribaviy va nazariy-tajribaviy usullar yordamida qurilishi mumkin.

Nazariy usullar fizika, mexanika qonuniyatlariga asoslansa, tajribaviy usul esa tajriba natijalarini bevosita qayta ishlash natijasida amalga oshiriladi.

Matematik modellarini tajribaviy usulda qurilishi “passiv” va “aktiv” tajriba ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. “Passiv” tajribada texnologik jarayon to‘g‘risidagi

ma'lumotlar ko'rilib yotgan obyektni normal holatda ishlash vaqtidagi natijalardan foydalaniadi.

“Aktiv” tajribada esa kiruvchi faktorlarni qiymatlarini planlashtirish matritsasi yordamida o'zgartirib har xil natijalar olinadi va tajriba natijalarini qayta ishlash natijasida modellar quriladi.

Ilmiy izlanish olib borilayotganda chiquvchi va kiruvchi parametrlari tanlab olish katta ahamiyatga egadir. Chiquvchi parametrlar sifatida, odatda izlanish obyektini va olinayotgan mahsulotni sifatini xarakterlovchi texnik-texnologik ko'rsatgichlar (fizikaviy, mexanikaviy, fizik-kimyoviy), texnik-iqtisodiy (ish unumidorligi, chidamligi, uzoq ishlashi), iqtisodiy (mashinalarning ish unumidorligi, foyda, xarajatlar), statistik ko'rsatgichlar (dispersiya, variatsiya koeffitsiyenti va h.) olinadi.

Kiruvchi parametrlar esa izlanish obyektini sifat va miqdoriy ko'rsatgichlarini ifodalab, texnologik jarayonga ta'sir etuvchi o'zgaruvchi faktorlardir.

Agar tajriba bitta kiruvchi parametr asosida olib borilsa bir faktorli eksperiment, ikki va undan ortiq kiruvchi parametrlar asosida o'tkazilsa ko'p faktorli eksperiment deyiladi.

Ko'p faktorli tajribada faktorlar bir-biriga bog'liq bo'lmasligi va o'zaro birlilikda bo'lishligi kerak.

Kiruvchi parametrlarning o'zgarish oralig'ini to'g'ri aniqlash ham katta ahamiyatga egadir:

$$(X_{i\min} \leq X_i \leq X_{i\max})$$

Bunda jarayonning fizik xususiyatlari va oldin olib borilgan ilmiy izlanishlarga asoslanadi.

Nazariy usullarda qurilgan modellar ko'p hollarda hisobiy formulalar, algebraik tenglamalar, algebraik tenglamalar sistemasi, oddiy differensial tenglamalar, xususiy hosilali differensial tenglamalar va ularning sistemalari va boshqa ko'rinishlarida bo'lishi mumkin.

### 2.3. Optimizatsiya masalasi

Ko‘p hollarda matematik modellar optimizatsiya masalalari ko‘rinishida bo‘ladi. Optimizatsiya - biror shartlar asosida eng yaxshi natijalar olinishining maqsadli yo‘nalishidir.

Masalani umumiy ko‘rinishi:

$$F(X, A, \xi, \delta) \rightarrow \max(\min)$$

quyidagi shartlar asosida

$$g_1(X, A, \xi, \delta) \geq 0$$

$$g_2(X, A, \xi, \delta) \geq 0$$

.....

$$g_{k+1}(X, A, \xi, \delta) \geq 0$$

bu yerda:  $F(X, A, \xi, \delta)$  - maqsadli funksiya;

$X(x_1, x_2, \dots, x_n)$  - boshqariluvchi o‘zgaruvchilar (temperatura, ish unumdarligi va h.k);

$A(A_1, A_2, \dots, A_s)$  -boshqarib bo‘lmaydigan o‘zgaruvchilar. Bular ish jarayonida o‘z qiymatlarini o‘zgartirmaydigan parametrlardir (mashinalarni geometrik o‘lchamlari va h.k);

$\xi(\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_m)$  -tasodifiy o‘zgaruvchilar. Bular texnologik jarayonda qiymatlari biror taqsimot qonuniga bo‘ysinuvchi tasodifiy qiymatlarni qabul qiladi. Ularning aniq qiymatlari ma’lum emas.(Aralashmadagi tolalarning xarakteristikaları, chiziqli zichligi, iplarni uzilishlar soni va h.k);

$\delta(\delta_1, \delta_2, \dots, \delta_r)$  - aniqmas o‘zgaruvchilar. Texnologik jarayonda qiymatlari aniq bo‘lмаган o‘zgaruvchilardir. (Keyingi yil hosilining iflosligi, yangi mahsulotga talab va h.k).

$F$  va  $\xi$  larni ko‘rinishiga qarab optimizatsiya masalalari xar xil bo‘ladi:

1. Matematik programmalashtirish masalalari:

$$F(X, A) \rightarrow \min(\max)$$

$$g_i(X, A) \geq 0 \quad \overline{i = l, k}$$

$$g_i(X, A) = 0 \quad \overline{i = k + l, n}$$

2. Parametrik programmalash masalalari:

$$F(X, A(t)) \rightarrow \min(\max)$$

$$g_i(X, A(t)) \geq 0 \quad \overline{i = l, k}$$

$$g_i(X, A(t)) = 0 \quad \overline{i = k + l, n}$$

$A(t)$  - vaqtga bog'liq bo'lgan ma'lum funksiya.

3. Stoxastik programmalash masalalari. Modellarda tasodifiy o'zgaruvchilar ( $\xi$ ) qatnashadi.

4. Statistik o'yinlar masalalari. Bu masalalarda qiymatlari aniq bo'lmagan ( $\delta$ ) o'zgaruvchilar qatnashadi.

Ko'p hollarda optimizatsiya masalalari yuqorida keltirilgan masalalarning kombinatsiyalaridan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

## 2.4. Amaliy dastur paketlari yordamida masalalar yechish

**2.4.1. *Mathcad* dasturi va uning imkoniyatlari.** *Mathcad* – *Math Soft* firmasining mahsuloti bo'lib, u matematikaga, texnikaga va iqtisodiyot sohalariga tegishli turli xil hisoblarni kompyuterda bajarish imkonini beruvchi dasturlar paketidir. *Mathcad* muhit formulalar, sonlar, grafiklar va matnlar bilan ishlash uchun foydalanuvchiga qulaylik yaratuvchi sodda grafik interfeys bilan ta'minlangan ko'plab vositalarni o'z ichiga oladi. Grafik interfeys – bu kompyuter ekranida joylashgan piktogrammalar, muloqot oynasi, menu va boshqa vositalar yordamida foydalanuvchi bilan dastur o'rtaсидagi o'zaro ta'sir usullari to'plamidir.

- **Mathcad** tarkibida turli xil murakkablikdagi ilmiy-texnik muammolarni sonli va analitik yechishga mo‘ljallangan yuzlab operatorlar va mantiqiy funksiyalar mavjud.

Boshidanoq, **Mathcad** dasturi loyiha chilar uni ilmiy-texnik hisoblar o‘tkazishda qulay, sodda va shular bilan birgalikda keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan vosita sifatida yaratishni o‘z oldilariga maqsad qilib olgan edilar. Ana shu maqsadga quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirish orqali erishilgan:

- matematikada formulalar, belgilar qanday bo‘lsa, shundayligicha yozish qoidasiga amal qilingan;
- barcha ma’lumotlar oshkor holda kompyuter ekranida aks ettiriladi, bosmaga chiqarilgan hujjatlar ekranda qanday ko‘rinsa, qog‘ozda ham shu holda ko‘rinadi, ya’ni foydalanuvchi *WYSIWYG* (*What You See Is What You Get* – nimani ko‘rayotgan bo‘lsang shuni olasan) interfeys bilan ta’minlangan;
- ishni yengillashtirish uchun yaratilgan ko‘plab instrumentlar panellaridan foydalanish mumkin;
- grafiklar qurish, integrallarni hisoblash, qatorlar yig‘indisini topish va shular kabi nisbatan murakkab bo‘lgan amallar ish hujjatida belgilangan joyni (qizil rangli «+» belgi turgan joydan boshlab) to‘ldirish bilan bajariladi;
- taqrifiy hisoblashlarni amalga oshirish uchun eng ishonchli, standart usullar (algoritmlar) tanlab olingan;
- tez-tez foydalanadigan protseduralar so‘zlarning to‘plami, ya’ni qulay «shpargalka»lar (*Quick Sheets*) ko‘rinishida berilgan, ularning mazmunini foydalanuvchining ish hujjatiga «keltirib qo‘yish» mumkin, bunday «shpargalka»lar soni 300 dan ortiq;
- foydalanuvchilar uchun ish davomida o‘zining oddiy interfeysiga ega

va gipermatnli murojaatlar kabi obyektlar bilan ta'minlangan, tushunarli va mantiqan sodda tashkil etilgan «ma'lumot berish» tizimidan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Bulardan tashqari ko'plab matematik va fizik o'zgarmaslar, foydali formulalarni o'zida mujassamlashtirgan «*Spravochnik*» mavjud va boshqalari.

**Mathcad** dasturi ikkita konfiguratsiyaga ega bo'lib, ulardan biri **Mathcad Professional** va ikkinchisi **Mathcad Standart** deb yuritiladi.

**Mathcad Professional** ikkinchisiga qaraganda ko'plab yangi vositalar va imkoniyatlarga egadir. **Mathcad Professional** tizimi imkoniyatlaridan foydalanib, quyida keltirilgan masalalarni hal qilish mumkin:

- haqiqiy sonlar, kompleks sonlar, o'lchov birligiga ega bo'lgan fizik miqdorlar qatnashgan hisoblarni bajarish;

- algebraik ifodalar ustida ayniy almashtirishlar bajarish, masalan qavslarni ochish, darajaga oshirish, o'xhash hadlarni ixchamlash, ko'paytuvchilarga ajratish, soddalashtirish, kasr ratsional ifodalarni oddiy kasrlar ko'rinishda yoyib yozish;

- elementar va maxsus funksiyalar ustida amallar bajarish, ularning ikki va uch o'lchovli grafiklarini dekart koordinatalar sistemasida qurish, qutb koordinatalar sistemasidan foydalanish, sath chiziqlari va vektor maydonini chizish;

- vektorlar va matritsalar bilan bo'ladigan turli xil amallar bajarish, masalan matritsa rangini aniqlash, matritsa determinantini hisoblash, teskari matritsani topish, matritsa ustun elementlarini uning satr elementlari bilan almashtirish (transponirlash), matritsaning xos son va xos vektorlarini topish (**Mathcad**da bunday amallarni bajarishga mo'ljallangan 20 dan ortiq mantiqiy funksiyalar va operatorlar mavjud);

- chiziqli va chiziqli bo'lmagan, tenglamalar hamda ularning

sistemasini sonli va analitik yechish, tengsizliklar va tengsizliklar sistemasini yechish;

- yig‘indi va ko‘paytmani hisoblash, differensiallash (ixtiyoriy tartibli hosila va xususiy hosilalarni topish), aniqmas va aniq integrallarni hamda karrali integrallarni topish, limitlarni hisoblash;

- Furye, Laplas va  $\mathcal{Z}$  – almashtirishlar, funksiyalarni Furye qatoriga yoyish;

- oddiy differensial tenglamalar va oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini yechish, chegaraviy masalalarni yechish, xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechish (**Mathcad Professional** tarkibida bunday masalalarni yechishga mo‘ljallangan 15 ga yaqin funksiyalar mavjud);

- korrelyatsion, regression, dispersion tahlil, kichik kvadratlar usuli, Monte-Karlo usuli, imitatsiya va shular kabi statistika va ehtimollar nazariyasiga doir masalalarni yechish (**Mathcad Professional** tarkibida bunday masalalarni yechishga mo‘ljallangan 200 ga yaqin statistik funksiyalar mavjud), splaynlar bilan approksimatsiyalash, interpolatsion ko‘phadlar qurish;

- optimallashtirish masalalari, shu jumladan turli xil chiziqli dasturlash masalalarini yechish, moliyaviy masalalarni yechish (**Mathcad Professional** tarkibida bunday masalalarni hal qilish tomon yo‘naltirilgan o‘nlab funksiyalar bor va yangilari yaratilmoqda). Bu ro‘yxatni yanada davom ettirish mumkin edi, lekin biz shu yerda to‘xtatamiz.

Misol tariqasida bularning ba’zi birlari bilan tanishib chiqamiz.

**Algebraik tenglamalar sistemasini yechish uchun** masalan **Given – Find** stardart funksiyalaridan foydalanishimiz mumkin. Buning uchun quyidagi amallar bajariladi:

1) berilgan tenglamalar sistemasi kiritiladi:

$$1.2 * x_1 + 2.8 * x_2 + 0.5 * x_3 = 3$$

$$3.2 * x_1 - 1.6 * x_2 - 0.3 * x_3 = 2.2$$

$$-0.2 * x_1 + 9.0 * x_2 + 0.5 * x_3 = 10.8$$

2) boshlang‘ich yaqinlashishlar beriladi:

$$x_1 := 0 \quad x_2 := 0 \quad x_3 := 0$$

3) *Given* so‘zi orqali tenglamalar sistemasi yoziladi

$$\text{Given} \quad 1.2 * x_1 + 2.8 * x_2 + 0.5 * x_3 = 3$$

$$3.2 * x_1 - 1.6 * x_2 - 0.3 * x_3 = 2.2$$

$$-0.2 * x_1 + 9.0 * x_2 + 0.5 * x_3 = 10.8$$

4) yechim vektor nomi va *Find* funksiyasi kiritiladi

$$P2 := \text{Find}(x_1, x_2, x_3)$$

va yechim olinadi

$$R2 = \begin{pmatrix} 0,99 \\ 1,482 \\ -4,674 \end{pmatrix}$$

Huddi shungdek, chiziqsiz tenglamalar sistemasini ham *Given – Find* funksiyalari orqali yechish mumkin.

**Differensial tenglamalar va birinchi tartibli differensial tenglamalar sistemasini yechishga mo‘ljallangan standart funksiyalar.**

Ko‘plab differensial tenglamalar va differensial tenglamalar sistemasining yechimlarini analitik (aniq, ya’ni funksiya ko‘rinishida) topish mumkin. Qaralayotgan fizik jarayonni tahlil qilish, shular asosida ma’lum xulosalarga kelish uchun berilgan boshlang‘ich ma’lumotlar va parametrlarning turli qiymatlarida olingan analitik yechimning sonli qiymatlarini topishga, ular asosida grafiklar qurishga ehtiyoj to‘g‘iladi. Bulardan tashqari shunday differensial tenglamalar va differensial

tenglamalar sistemasi mavjudki, ularning yechimini analitik ko‘rinishda topib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham differential tenglamalarni integrallashning taqribiy usullari keng tarqalgan.

**Mathcad** dasturi tarkibida birinchi tartibli oddiy differential tenglamalar, yuqori tartibli oddiy differential tenglamalar va birinchi tartibli oddiy differential tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini hamda chegaraviy masalalarni sonli yechishga mo‘ljallangan o‘ndan ortiq standart funksiyalar mavjud bo‘lib, ularning asosiyilari quyida keltirilgan.

*Rkfixed(y,x1,x2,m,D)* - bu funksiya birinchi tartibli oddiy differential tenglama yoki birinchi tartibli *n* ta oddiy differential tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini berilgan kesmada to‘rtinchi tartibli Runge-Kutta usulini qo‘llab, integrallash qadami o‘zgarmas bo‘lgan hol uchun yechadi.

bu yerda: *y* - noma’lum fuksianing boshlang‘ich qiymatlari vektori;

*x1* - argumentning boshlang‘ich qiymati;

*x2* - argumentning oxirgi qiymati;

*m* - integrallash qadamlar soni;

*D* - tenglamalar sistemasini o‘ng tomoni (ustun vektor)

Olingan natijalardan shuni ta’kidlash lozimki, *Rkfixed* funksiyasi yordamida olingan sonli yechim *m* ta satr va (*n* + 1) ta ustunga ega bo‘lgan matritsaning elementlari ko‘rinishda beriladi. Matritsaning birinchi ustuni argument *x* ning integrallash oralig‘iga tegishli qiymatlari, ya’ni  $x_0, x_1, x_2, \dots, x_m$  integrallash nuqtalarini o‘z ichiga oladi. Birinchi ustunda  $y_1(x)$  funksianing, ikkinchi ustunda  $y_2(x)$  funksianing va hakozo oxirgi ustunda funksianing ya’ni funksianing *x* ning yuqoridagi qiymatlariga mos qiymatlari joylashgan bo‘ladi.

Agar differentzial tenglama birinchi tartibli bo‘lsa, olingan sonli yechim

ikkita ustunli matritsa elementlari shaklida ifodlanadi, nolinchiligi ustunda argument  $x$  ning qiymatlari

$X_i = x_2 + I \cdot n$  lar ( $I = \frac{x_2 - x_1}{m}$ ), birinchi ustunda esa shu qiymatlarga mos yechimining qiymatlari joy oladi ( $I = 0, 1, \dots, m$ ).

*Rkadapt(y, x1, x2, m, D)* - bu funksiya birinchi tartibli oddiy Differensial tenglama yoki birinchi tartibli  $p$  ta oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini berilgan kesmada to‘rtinchi tartibli Runge-Kutta usulini qo‘llab integrallash qadamini avtomatik tanlash yo‘li bilan yechadi.

**Chiziqli programmalashtirish masalalarini yechish** uchun *Given – Maximize* standart funksiyalaridan foydalanishimiz mumkin.

Masalan, quyidagi optimizatsiya masalasi berilgan bo‘lsin:

$$f(x) := 40 * x_0 + 50 * x_1 + 30x_2 + 20 * x_3 \rightarrow \max$$

quyidagi shartlar asosida.

$$3x_1 + 5x_2 + 2x_3 + 7x_4 \leq 15$$

$$4x_1 + 3x_2 + 3x_3 + 5x_4 \leq 9$$

$$5x_1 + 6x_2 + 4x_3 + 8x_4 \leq 30$$

Optimal yechimni topish uchun quyidagi algoritmdan foydalanamiz:

1) Maqsadli funksiya kiritiladi

$$f(x) := 40 * x_0 + 50 * x_1 + 30x_2 + 20 * x_3$$

2) Shartdagi tengsizliklar sistemasini koeffitsiyentlari (matritsa ko‘rinishida) va o‘ng tomoni (vektor-ustun ko‘rinishida) hamda ixtiyoriy bir o‘zgaruvchini boshlang‘ich qiymati nomlari bilan kiritiladi

$$M := \begin{pmatrix} 3 & 5 & 2 & 7 \\ 4 & 3 & 3 & 5 \\ 5 & 6 & 4 & 8 \end{pmatrix} \quad v := \begin{pmatrix} 15 \\ 19 \\ 20 \end{pmatrix} \quad x_3 := 0$$

3) *Given – Maximize* blok kiritiladi:

*Given*  $M * x \leq v$   $x \geq 0$   $x_{opt} := \text{Maximize}(f, x)$

4) Natijada izlanayotgan yechim olinadi:

$$X_{opt} = \begin{pmatrix} 0 \\ 3 \\ 0 \\ 0 \end{pmatrix} \quad f(x_{opt}) = 150$$

#### 2.4.2. **Maple – 8** dasturidan foydalanish.

**Maple** matematik va injener-texnik hisoblashlarni o‘tkazishga mo‘ljallangan dasturlashning integrallashgan tizimi hisoblanadi. U formula, son, matn va grafika bilan ishlash uchun keng imkoniyatli tizimdir.

Paket foydalanish uchun ancha qulaydir. Uning interfeysi shunchalik qulay qilinganki, undan foydalanuvchi dastur varag‘i bilan xuddi qog‘oz varag‘i singari ishlaydi. Unga sonlar, formulalar, matematik ifodalar va hokozalarni yozadi.

**Maple** tizimi matn muharriri, kuchli hisoblash va grafik prosessoriga ega. Matn muharriri matnlarni kiritish va muharrirlash uchun ishlatiladi. Matnlar izohlardan iborat bo‘lib, unga kiritilgan matematik ifodalar bajarilmaydi. Matn so‘zlar, matematik ifoda va formulalar, maxsus belgilar va hokozalardan iborat bo‘lishi mumkin. **Maplening** asosiy xususiyati matematikada umumiyligini qabul qilingan belgilarning ishlatilishidadir. Hisoblash prosessori keng imkoniyatga ega. U murakkab matematik formulalar bo‘yicha hisoblashlarni bajaradi. Ko‘plab matematik funksiyalarga ega bo‘lish bilan birga, qatorlar, yig‘indi, ko‘paytma, hosila va aniq integrallarni hisoblash, kompleks sonlar bilan ishlash, hamda chiziqli va chiziqsiz tenglamalarni yechish, vektor va matriksalar ustida amallar bajarish imkoniyatini yaratadi.

**Maple** dasturining oynasi barcha amaliy dasturlarning oynasi kabitidir.

**Maplening** ishchi maydoni 3 qismga bo‘linadi:

1. **Kiritish maydoni** – buyruqlar satridan tashkil topgan. Har bir buyruq satri > simvoli bilan boshlanadi;

2. **Chiqarish maydoni** – kiritilgan buyruqlarni qayta ishlangandan so‘ng hosil bo‘lgan ma’lumotlar (analitik ifodalar, grafiklar va xabarlar)ni o‘z ichiga oladi;
3. **Matnli izohlar maydoni** – ro‘y bergan hatoliklar yoki bajarilgan buyruqlarga izohlar, turli xarakterdagi xabarlar.

Buyruqlar satrini matnli rejimiga o‘tkazish uchun uskunalar panelidan sichqoncha yordamida T ni tanlaymiz.

*Maple* dasturi ham Windowsning barcha ilovalari kabi quyidagi elementlardan iborat:

- Sarlavha satri. Bu qatorda fayl nomi, sistemali tugmachalar joylashgan;
- MenY. Menyu bo‘limlari 8 ta bo‘lib, ular *Maple* dasturida ishlashni osonlashtiradi;
- Asboblar paneli. Foydalanuvchi uchun muhim va ko‘p foydalaniladigan buyruqlar uchun yorliqlar joylashtirilgan;
- Ishchi stol yoki *Maple* hujjati. *Maple*da yaratilgan hujjat kengaytmasi \*.mw bo‘lib hisoblanadi.

Dastur ishga tushirilgandan keyin quyidagi menyu hosil bo‘ladi:

- *File* – fayllar bilan ishlash va hujjatni chop etish.
- *Edit* – hujjatni tahrirlash buyruqlari va almashtirishlar buferi bilan ishlash.
- *View* – foydalanuvchi interfeysi ko‘rinishini boshqarish.
- *Insert* – o‘rnatish amallari.
- *Format* – formatlarni berish operatsiyalari.
- *Spreadsheets* - jadvallarni berish amallari.
- *Options* – parametrlnarni berish.
- *Help* – ma’lumotlar muhiti bilan ishlash.
- *Window* – oynalarni boshqarish.

Matematik belgilarni kiritish paneli. Matematik belgilarni kiritish uchun *Palettes* paneli ro‘yxatidan foydalaniladi. Bu ro‘yxat *View* menyusida joylashgan. Ro‘yxatda quyidagilar mavjud:

- *SYMBOL* - alohida belgilarni kiritish (grek harflar va ba’zi matematik belgilar);

- *FESION* - matematik operatorlar va amallar shablonini kiritish;

- *MATRIX* – turli o‘lchovdagi matrisalar shablonini kiritish;

- *VEKTOR* – turli o‘lchovdagi vektorlar shablonini kiritish

Menyudan pastda joylashgan har bir tugmacha belgilar panelini ochish uchun ishlatiladi. Bu panellar operatorlar, grek harflari, grafiklar va boshqalarni o‘rnatish uchun ishlatiladi.

**Maple muhitining vositalar va shriftlar paneli.** Tugmachalar majmuasidan pastda – vositalar paneli joylashgan. Menyuning ko‘plab buyruqlarini tezroq ishga tushirish uchun vositalar panelining tugmachalarini bosish kerak bo‘ladi. Har bir tugmachani bosish orqali nima amalga oshirilishini bilish uchun, uning belgisi ustiga sichqoncha ko‘rsatkichi o‘rnatilsa ma’lumot satri paydo bo‘ladi.

- Bositalar panelining to‘g‘rima - to‘g‘ri pastida shriftlar paneli joylashgan. U tanlash shabloni va tugmachalardan iborat bo‘lib, tenglamalarda va matnda shriftlar xarakteristikasini berish uchun ishlatiladi.

Oynaning o‘ng tomonida vertikal aylantirish uskunasi joylashgan bo‘lib, u joriy holatda ekranda ko‘rinmay turgan ma’lumotlarni ko‘rish imkonini beradi. Ekranning ko‘rinib turgan sohasidan yuqori va pastki qismlarida nimalar borligini ko‘rish uchun vertikal aylantirish uskunasining unga mos yo‘nalish belgisiga sichqonchani qirsillatish yetarli bo‘ladi.

Oynaning quyi qismda gorizontal aylantirish uskunasi joylashgan bo‘lib, u joriy holatda ekranning ishchi sohasining chap yoki o‘ng tomonida ko‘rinmay turgan ma’lumotlarni ko‘rish imkonini beradi. U vertikal aylantirish uskunasi kabi

ishlatiladi va undan farqi gorizontal aylantirish uskunasi chapdan o'ngga yoki o'ngdan chapga yurgiziladi.

**Maple** muhitida ifodalar qiymatini hisoblash. **Maple** muhitida oddiy ifodalar, sonlar, arifmetik va mantiqiy amal belgilaridan iborat bo'ladi. **Maple** muhitida ham ifodalar xuddi dasturlash (Paskal, Basic) tillari kabi ostki hamda ustki indekslarsiz bitta satrga yoziladi.

Masalan:  $(56.6 + 6.3 * 3.2) / (2.3^3 + 2^4)$ .

Har qanday sonli ifodani qiymatini chiqarish uchun, klaviatura orqali standart matematik yozuvdan foydalanib kerakli ifoda teriladi va oxiriga (;) belgisi qo'yilib enter tugmachasi bosiladi. Oddiy ifodalarni qiymatlarini hisoblash uchun quyidagi sonlar va amal belgilaridan foydalaniлади:

- 1) raqamlar - 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9.
- 2) arifmetik amallar - +, -, \*, /, ^ yoki \*\*, !.
- 3) munosabat amallar - >, <, >=, <=, =, <>.
- 4) mantiqiy amallar – *and*, *or*, *not*.
- 5) maxsus belgilar – (, ), [ , ], { , }, @, #, \$, &, %
- 6) *Pi* –  $\pi$  soni, *infinity* – cheksiz; *Gamma* – Eyler o'zgarmasi; *true*, *false* – mantiqiy o'zgarmaslar.

**Maple** muhitida sonlar haqiqiy (real) va kompleks (*complex*) bo'ladi. Kompleks sonlarning algebraik ko'rinishi  $z = x + iy$ , buyruqlar satrida quyidagicha yoziladi:

>  $z := x + i * y;$

**Maple**da sonlar tabiiy ravishda matematikadagi kabi butun (*integer*), ratsional, haqiqiy (*real*) va kompleks (*complex*) bo'lishi mumkin. Ularning ma'nolari bir xil, faqat yozilish qoidalariga aniq itoat qilish kerak. Ratsional sonlar 3 xil ko'rinishda tasvirlanadi:

1. Oddiy kasr ko'rinishidagi ratsional son, masalan: 25/28;
2. O'nli kasr ko'rinishidagi (float) ratsional son: 3.5621;

3. Daraja ko‘rinishidagi ratsional son: masalan,  $2.301 \cdot 10^{18}$  son mapleda  $2.301 \cdot 10^{18}$  ko‘rinishida yoziladi.

*Mapleda* amallar bo‘lim – bo‘lim asosida shakllantiriladi va kvadrat qavs bilan chegaralanadi. Buyruqlar [>] operatoridan so‘ng kiritiladi va natija ishchi stolning o‘rtasidan hosil bo‘ladi. Har bir buyruqdan so‘ng [;] belgisini qo‘yish shartdir. Mapleda hisoblashni amalga oshirish uchun [Enter] tugmasi yoki asboblar panelidan [!] belgisini bosish kerak. Masalan:

```
[> 1+3;          4
[> 25*6-4;      146
[> sin(Pi);     0
```

*Mapleda* Matematik funksiyalarni kiritishda qiyalsangiz, uning menyularidan foydalanish mumkin. Buning uchun [View]→[Palettes]→[Expression Palette] ketma-ketlik orqali [Expression] muloqot oynasi chiqariladi va ixtiyoriy matematik funksiya va amallarni joylashtirish mumkin. Turli matematik belgilar va grek harflarini yozish uchun [View]→[Palettes]→[Symbol Palette] buyruqlar ketma-ketligidan foydalaniladi.

### III - BOB. TASODIFIY MIQDORLAR SONLI XARAKTERISTIKALARI

#### 3.1 Xatoliklar nazariyasi

Aniq sonlar biror kattalikning aniq qiymatini ifodalaydi. Taqribiy sonlar esa, biror kattalining aniq qiymatiga juda yaqin bo‘lgan sonni ifodalaydi.

**1-Ta’rif.** *Taqribiy sonning absolyut xatoligi deb  $*A*$  va  $*a*$  orasidagi ayirmaning moduliga aytildi.*

*Absolyut xatolikni  $\Delta$  deb belgilasak, u holda*

$$\Delta = |A - a| \quad (1)$$

**2-Ta’rif.** *Taqribiy son  $*a*$  ning nisbiy xatoligi  $\delta(a)$  deb, absolyut xatolik  $\Delta a$  ni,  $*A*$ ni moduliga nisbatiga aytildi.*

$$\delta(a) = \frac{\Delta a}{|A|} \cdot 100\% \quad \delta(a) = \frac{\Delta a}{|a|} \quad (2)$$

**1-misol.**  $a = 35,148 \pm 0,00074$  taqribiy sonning nisbiy xatoligi (foizlarda) topilsin.

Yechish. Bu yerda  $\Delta a = 0,00074$ ;  $A = 35,148$ . U holda (2) ga asosan

$$\delta(a) = \frac{0,00074}{35,148} = 0,000022 \approx 0,003\%$$

Agarda nisbiy xatolik berilgan bo‘lsa u holda absolyut xatolik quyidagicha topiladi:

$$\Delta a = \frac{\delta(a) \cdot |A|}{100\%}$$

**2-misol.** 300 gr. miqdordagi paxta namunasi tortildi. Agarda tarozining nisbiy xatoligi  $\delta(a) = 5\%$  bo‘lsa uning absolyut xatoligini toping.

Yechish. Bu yerda  $\delta(a) = 5\%$ ,  $a = 300$  gr

(2) formuladan

$$\Delta a = \frac{\delta(a) \cdot |a|}{100\%} = \frac{5\% \cdot 300}{100\%} = 15, \quad A = 300 \pm 15 \text{ gr.}$$

Taqribiy sonlar ustida amallar:

1. Taqribiy sonlarni qo'shganda yoki ayirganda ularning absolyut xatoliklari qo'shiladi

$$\Delta(a \pm b) = \Delta a + \Delta(b) \quad (3)$$

bu yerda  $\Delta a$  va  $\Delta b$  - taqribiy sonlar.

2. Taqribiy sonni taqribiy songa bo'lganda yoki ko'paytirganda ularning nisbiy xatoliklari qo'shiladi

$$\delta(a \cdot b) = \delta(a) + \delta(b) \quad (4)$$

$$\delta\left[\frac{a}{b}\right] = \delta(a) + \delta(b) \quad (5)$$

3. Taqribiy sonni darajaga oshirilganda, uning nisbiy xatoligi daraja ko'rsatkichga ko'paytiriladi:

$$\delta(a^n) = n\delta(a) \quad (6)$$

**3-misol.**  $y = \left(\frac{a+b}{x^3}\right)^{\frac{1}{2}}$  ifodaning nisbiy xatoligini toping

$$\delta(y) = \frac{1}{2} (\delta(a+b) + 3\delta(x)) = \frac{1}{2} \left( \frac{\Delta a + \Delta b}{|a+b|} + 3 \frac{\Delta x}{|x|} \right)$$

Amaliyotda, ya'ni to'qimachilik, yengil va paxta sanoati muammolari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda:

agarda nisbiy xatolik  $\delta(a) \leq 2\%$  bo'lsa, u holda bu aniqlangan qiymat yuqori aniqlikda topilgan.

agar  $2\% \leq \delta(a) \leq 5\%$  bo'lsa o'rta aniqlikda topilgan,

agar  $5\% \leq \delta(a) \leq 10\%$  bo'lsa past aniqlikda topilgan deb hisoblanadi.

**Funksiya xatoligi:** Faraz qilaylik. " $a$ " bir o'zgaruvchili funksiya  $y = f(x)$  ning argumenti " $x$ " ning taqribiy qiymati bo'lsin.  $\Delta a$  – esa uning absolyut xatoligi. Bu funksiyaning absolyut xatoligi tarzida uning ortirmasi  $\Delta y$  ni olish mumkin. Orttirmani esa differentsial bilan almashtirsak

$$\Delta y \approx dy$$

U holda

$$\Delta y = |f'(a)| \cdot \Delta a$$

Ushbu muloxazani ko‘p o‘zgaruvchili funksiyaga ham qo‘llash mumkin.

$U = f(x, y, z)$  funksiyasining argumentlari  $x, y, z$  lar uchun taqribiy qiymatlar  $a, b, c$  lar bo‘lsin.

U holda

$$\Delta u = |f'_x(a, b, c)| \cdot \Delta a + |f'_y(a, b, c)| \cdot \Delta b + |f'_z(a, b, c)| \cdot \Delta c \quad (7)$$

bu yerda  $\Delta a, \Delta b, \Delta c$  - argumentlar absolyut xatoligi,  $f'_x, f'_y, f'_z$  - mos ravishda  $x, y, z$  bo‘yicha olingan xususiy hosilalar.

Nisbiy xatolik esa quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\delta(u) = \frac{\Delta u}{|f(a, b, c)|} \quad (8)$$

## 3.2. Matematika statistika elementlari

### 3.2.1. Statistik xarakteristikalar va ularni hisoblash

Statistik hisobning asosiy masalalardan biri parametrler deb ataladigan va variatsiyon qatorining hususiyatlarini yetarli darajada ifodalab beradigan baholarni aniqlashdan iborat.

Statistik baholarni ikki gruppaga bo‘lish mumkin. Birinchi gruppaga turli “o‘rtacha qiymatlar”: moda, mediana, arifmetik o‘rtacha qiymat, geometrik o‘rtacha qiymat kiradi. Ikkinci gruppaga: absalyut o‘rtacha farq, o‘rtacha kvadratik farq, dispersiya, variatsiya va asimmetriya koeffitsiyentlari kiradi. Aytaylik bo‘sh to‘plamning biror miqdoriy ko‘rsatkichini baholash talab qilinsin. Nazariy mulohazalardan ana shu ko‘rsatkichning taqsimotiga ega ekanligi ma’lum bo‘lsin. Tabiiy ravishda bu taqsimotni aniqlaydigan parametrлarni baholash masalasi kelib chiqadi. Odatda kuzatish natijalari, ya’ni tanlanma qiymatlaridan boshqa ma’lumot bo‘lmaydi.

Noma’lum parametrning **statistik yoki empirik bahosi** deb tasodifiy miqdorning kuzatilgan qiymatlari funksiyasiga aytildi.

Ixtiyoriy hajmdagi tanlanma uchun matematik kutilmasi baholanayotgan parametrga teng bo‘lgan statistik baho **siljimagan baho** deyiladi.

Matematik kutilmasi baholanayotgan parametrga teng bo‘lmagan statistik baho **siljigan baho** deyiladi.

Eng kichik dispersiyaga ega bo‘lgan statistik baho **effektiv baho** deyiladi.

Katta hajmdagi tanlanmalar bilan ish ko‘rilganda bahoga asoslilik talabi qo‘yiladi.  $n \rightarrow \infty$  da baholanayotgan parametrga ehtimollik bo‘yicha yaqinlashuvchi statistik baho **asosli baho** deyiladi.

Bitta kattalik bilan aniqlanadigan statistik baho **nuqtaviy baho** deyiladi.

Baholanayotgan parametrni qoplaydigan intervalning chegaralarini bildiruvchi ikki miqdoriy kattalik bilan aniqlanadigan statistik baho **interval baho** deyiladi.

### 3.2.2. Nuqtaviy baholar

**Arifmetik o‘rtacha qiymat.** Arifmetik o‘rtacha qiymatni oddiy va vazniy o‘rtacha arifmetik qiymatga ajratiladi.

Masalan. 5-ta bir hil kattalikdagi yer uchastkasining har bir gektaridan 32, 28, 30, 31, 33 s. dan paxta hosili yig‘ib olingan bo‘lsin bu holda oddiy arifmetik o‘rtacha qiymat bo‘lib,  $\frac{32+28+30+31+33}{5} = \frac{154}{5} = 30,8 N$  ga teng bo‘ladi.

Umuman, agar “ $n$ ” ta kuzatishda  $X$  miqdor uchun  $x_1, x_2, \dots, x_n$  qiymatlarni hosil qilgan bo‘lsak, ularning ushbu

$$\bar{X} = \frac{x_1 + x_2 + \dots + x_n}{n} \quad (1)$$

o‘rtacha qiymat oddiy arifmetik o‘rtacha qiymat bo‘linadi.

Misol. Har bir gektor yerdan olingan paxta hosil taqsimoti (c. hisobida)

quyidagi bo‘lsa 
$$\frac{X_i}{n_i} \begin{array}{|c|c|c|c|c|} \hline & 28 & 29 & 30 & 31 & 32 \\ \hline 2 & | & | & | & | & | \\ 5 & | & | & | & | & | \\ 8 & | & | & | & | & | \\ 4 & | & | & | & | & | \\ 3 & | & | & | & | & | \\ \hline \end{array}$$

Bu holda o‘rtacha hosil - vazniy arifmetik o‘rtacha qiymat bo‘lib, ushbu

$$\text{ko'rnishda ifodalanadi: } \bar{X} = \frac{2 \cdot 28 + 5 \cdot 29 + 8 \cdot 30 + 4 \cdot 31 + 3 \cdot 32}{2 + 5 + 8 + 4 + 3} = \frac{661}{22} = 30,05 \text{ c.}$$

Tanlamaning o'rta qiymati bosh to'plamning siljimagan bahosi bo'lib xizmat qiladi. Umuman agar  $X$  miqdorning  $k$ -ta  $x_1, x_2, \dots, x_k$  qiymat mos tartibida  $n_1, n_2, \dots, n_k$  martadan kuzatilgan bo'lsa, qiymatning umumiy ifodasi

$$\bar{X} = \frac{n_1 x_1 + n_2 x_2 + \dots + n_k x_k}{n_1 + n_2 + \dots + n_k} \quad (2)$$

bu yerda:  $n_1, n_2, \dots, n_k$ -sonlar vaznlari deb ataladi. (2) tenglikni quyidagi ko'rnishda yozish qulay:

$$\bar{X} = \frac{\sum_{i=1}^k n_i x_i}{\sum_{i=1}^k n_i} \quad (3)$$

**Moda va Mediana.** Tasviriy harakterdagi maxsus o'rtacha ko'rsatchiklar - moda va mediana statistik tajribada ko'p qo'laniadi. Bu o'rtacha qiymat variatsion qatorda ma'lum o'rin tutgan kuzatishlarning biri bilan ifodalaniladi va taqsimotning formasiga bog'liq bo'lmaydi.

a) moda deb eng katta chastotaga ega bo'lgan variatsiyaga aytildi. Misol: variantda  $X_i$  1 4 7 9 chastota  $n_i$  5 3 20 6 qator uchun moda 7 ga teng.

Uzluksiz variatsion qatorida moda, odatda variatsiyalar soni eng ko'p bo'lgan gruppada bo'ladi. Bu gruppera moda gruppasi deyiladi. Eng ko'p hisoblashda moda sifatida moda gruppating o'rtasini olish mumkin. Umuman, gruppera ichida kuzatishlar tekis taqsimlanmagan bo'lishi mumkin, shuning uchun modaning qiymatini quyidagi formula bo'yicha hisoblanganda yaxshiroq natijaga ega bo'lish mumkin:

$$M_O = X_M + n \frac{n_M - n_{M-1}}{(n_M - n_{M-1}) + (n_M - n_{M+1})} \quad (4)$$

bu yerda  $x_{M-1}$ -model gruppating quyi chegarasi,

$n$ -oralig'i (kengligi),

$n_M, n_{M-1}, n_{M+1}$ -model unga chap va o'ngdan qo'shni gruppalarning

takrorlanishlari.

Mediana  $M$  deb, varatsion qatorni variantlar son teng bo‘lgan ikki qismga ajratadigan variantga aytildi.

Agar variantlar soni toq ya’ni  $n = 2k + 1$  bo‘lsa, u holda  $M_C = x_{k+1}$  bo‘ladi

“ $n$ ” juft, ya’ni  $n = 2k$  da mediana  $M_C = \frac{x_k + x_{k+1}}{2}$  teng bo‘ladi.

Masalan. 1, 2, 3, 5, 6, 7 qator uchun mediana  $(5+6):2=5,5$

Agar to‘plamning hajmi katta bo‘lsa, avval, uni gruppalarga ajratiladi va mediana quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$M_C = x_0 + n \frac{S_1 - S_2}{f} \quad (5)$$

bu yerda  $x_0$  – kuzatishlar natijalarining yarmi joylashgan gruppating quyi chegarasi:

$n$  – oraliqni qiymatini:

$S_1$  - qator umumiylarining yarmi:

$S_2$  – mediana joylashgan gruppadan oldingi gruppating yig‘ilgan takrorlanishi:

$f$  – mediana joylashgan gruppating takrorlanishi.

**To‘plamning despersiyasi:** Arifmetik o‘rtacha qiymat o‘rganilayotgan to‘plam uchun belgining qaysi qiymati eng xarakterli ekanini ko‘rsatadi. Lekin uning o‘zi to‘plamni xarakterlash uchun hali yetarli emas, yani o‘zgaruvchanlikning mavjudligi to‘plamning asosiy hususiyatidir.

Shuning uchun bosh va tanlanma to‘plam  $X$  son belgisining o‘zining o‘rtacha qiymati atrofida sochilishni harakterlash maqsadida yig‘ma xarakteristika –bosh va tanlanma disperitsiyalar tushunchasi kiritiladi.

1. Bosh disperitsiya  $D_b$  deb bosh to‘plam belgisi qiymatlarni ularni o‘rtacha qiymati  $x_b$  dan chetlanishlari kvadratlarning o‘rtacha arifmetik qiymatiga aytildi. Agar  $N$  hajmli bosh to‘plam belgisini barcha  $x_1, x_2, \dots, x_n$  qiymalari turlicha bo‘lsa, u holda

$$D_b = \frac{\sum_{i=1}^N (x_i - \bar{x}_b)^2}{N} \quad (6)$$

Agar belgining  $x_1, x_2, \dots, x_K$  - qiymatlarni mos ravishda  $N_1, \dots, N_K$ -chastotlarga ega shu bilan birga  $N_1 + N_2 + \dots + N_K = N$ -bo'lsa u holda.

$$D_b = \frac{\sum_{i=1}^K N_i (x_i - \bar{x}_b)^2}{N} \quad (7)$$

**"Tuzatilgan" dispersiyasi** bosh to'plam dispersiyasining siljimagan bahosi bo'lib xizmat qiladi:

$$S^2 = \frac{n}{n-1} D_T = \frac{n}{n-1} \sum_{i=1}^n (X_i - \bar{X})^2 = \frac{n}{n-1} \sum_{i=1}^n (x_i - \bar{X})^2 \cdot n_i$$

$M(S^2) = D_T$  bo'lgani uchun bu siljimagan bahodir.

Tanlama dispersiyani hisoblaganda quyidagi foydalanish qulay:

$$D_T = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n X_i^2 - \bar{X}^2 = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n x_i^2 \cdot n_i - \bar{X}^2$$

Bosh to'plam belgisi qiymatlarini uning o'rtacha qiymati atrofida sochilishni xarakterlash uchun dispersiyadan tashqari yig'ma xarakteristika-o'rtacha kvadratik chetlanishdan foydalanildi.

O'rtacha kvadratik bosh chetlanish deb bosh dispersiyadan olingan kvadrat ildizga aytiladi.

$$\sigma_b = \sqrt{D_b} \quad (8)$$

**"Tuzatilgan" o'rtacha kvadratik chetlashish** tanlama "tuzatilgan" dispersiyasidan olingan kvadrat ildizi bilan aniqlanadi:

$$S = \sqrt{\frac{n}{n-1} D_T} .$$

**O'rtacha absalyut chetlanish. Variyatsiya (o'zgaruvchanlik) va assimetriya koeffitsiyentlari:** O'rtacha absalyut chetlanish  $Q$  deb absalyut chetlanislarning o'rtacha arifmetik qiymatiga aytiladi:

$$Q = \frac{\sum n_i |X_i - \bar{X}_T|}{\sum n_i} \quad (9)$$

Foizlarda ifodalangan quyidagi miqdorga variatsiya koeffitsiyenti deb

ataladi:

$$V = \frac{\sigma}{\bar{X}} \cdot 100\% \quad (10)$$

Arifmetik o‘rtacha qiymat va o‘rtacha kvadratik farq variatsiyon qatorning muhim xarakteristikalaridandir. Lekin ular variyantlarning o‘rtacha qiymatga nisbatan gruppalarga qanday taqsimlanishi haqida hech qanday ma’lumot bermaydi.

Variatsiyon qatorlarda variantlar gruppalarga arifmetik o‘rtacha qiymatning ikkala tomonida yetarli darajada tekis taqsimlanadi: simmetrik taqsimotlarning moda, mediana va arifmetik o‘rtacha qiymatlari bir-biriga teng, ya’ni bunday hollarda  $M_0 = M_C = X$  tenglik o‘rinli bo‘ladi. Ammo statistik praktikada assimetrik deyiladigan (ya’ni nosimmetrik bo‘lgan) taqsimotlar ham uchrab turadi.

Assimetrik koeffitsiyenti deb uchinchi tartibli o‘rta qiymatining o‘rta kvadratik chetlanishning kubiga nisbatiga aytildi.

$$A_S = \frac{m_3}{\sigma^3} \quad (11)$$

bu yerda:  $m_3 = \frac{\sum_{i=1}^n n_i (x_i - \bar{x})^3}{\sum_{i=1}^n n_i}$  - simmetrik taqsimotlarda assimetriya koeffitsiyenti  
nolga teng.

Agar  $A_3 \leq 0,25$  bo‘lsa, assimetriya ham deb hisoblanadi.  $A_3 \geq 0,5$  taqsimotning assimetrikligi ko‘p bo‘ladi.

### **3.3. Taqsimot noma’lum parametrlerining interval baholari**

Yuqorida ko‘rib chiqilgan baholarning hammasi nuqtaviy baholar edi. Kichik hajmdagi tanlanmalarda nuqtaviy baholar, baholanayotgan parametr dan sezilarli farq qilishi mumkin. Shu sababli tanlanma hajmi kichik bo‘lganida

bahoning aniqligi va ishonchlilagini yaxshiroq ta'minlaydigan interval baholardan foydalanish o'rinnlidir.

Interval baholar intervalning chegaralarini bildiruvchi ikkita miqdor bilan aniqlanadi.

Tanlanma bo'yicha topilgan  $\theta^*$  statistik kattalik  $\theta$  noma'lum parametrning bahosi bo'lsin. Albatta,  $|\theta - \theta^*|$  ayirma qanchalik kichkina bo'lsa,  $\theta^*$  statistik baho  $\theta$  parametrni shuncha aniq baholaydi. Shunday qilib,  $|\theta - \theta^*| < \delta$  shartni qanoatlantiruvchi  $\delta > 0$  son baho aniqligining ko'rsatkichidir.

$\theta^*$  statistik bahoning **ishonchligi** deb  $|\theta - \theta^*| < \delta$  tengsizlikning bajarilish ehtimoli  $\gamma$  ga aytildi, ya'ni

$$P\{|\theta - \theta^*| < \delta\} = P\{\theta^* - \delta < \theta < \theta^* + \delta\} = \gamma.$$

Odatda bahoning ishonchligi oldindan beriladi va  $\gamma$  sifatida birga yaqin qiymatlar olinadi, masalan, 0,95; 0,99; 0,999.

Noma'lum parametrni berilgan  $\gamma$  ishonchlilik bilan qoplaydigan  $(\theta^* - \delta; \theta^* + \delta)$  interval **ishonch intervali** deyiladi.

### **Normal taqsimot dispersiyasi ma'lum bo'lgan holda uning matematik kutilmasi uchun interval baho**

$X$  -  $a$  va  $\sigma^2$  parametrlar bilan normal taqsimlangan tasodifiy miqdor, ya'ni  $N(a, \sigma^2)$  bo'lib,  $a$  noma'lum va  $\sigma^2$  ma'lum bo'lsin. Noma'lum  $a$  parametrni  $\gamma$  ishonchlilik bilan qoplaydigan ishonch oralig'ini topamiz.

Tanlanmaning qiymatlari  $X_1, X_2, \dots, X_n$  -  $N(a, \sigma^2)$  parametrli normal taqsimlangan tasodifiy miqdorning kuzatish natijalaridan iborat. Ma'lumki,  $\bar{X} = \frac{1}{n}(X_1 + \dots + X_n)$  tanlanmaning o'rta qiymati  $M(\bar{X}) = a$ ;  $\sigma(\bar{X}) = \frac{\sigma}{\sqrt{n}}$  parametrli normal taqsimotga ega.

$$P\{|\bar{X} - a| < \delta\} = \gamma \text{ munosabat o'rinnli bo'lishini talab qilamiz va bizga ma'lum}$$

bo‘lgan

$$\{|\bar{X} - a| < \delta\} = 2\phi\left(\frac{\delta\sqrt{n}}{\sigma}\right) \text{ yoki } P\{|\bar{X} - a| < \delta\} = 2\phi(t), t = \frac{\delta\sqrt{n}}{\sigma}$$

formuladan foydalanamiz. Oxirgi tenglikdan:  $\delta = \frac{t\sigma}{\sqrt{n}}$ . Demak,

$$P\left\{|\bar{X} - a| < \frac{t\sigma}{\sqrt{n}}\right\} = 2\phi(t).$$

Tenglikning chap tomon berilgan va u  $\gamma$  ga teng. U holda

$$P\left\{\bar{X} - \frac{t\sigma}{\sqrt{n}} < a < \bar{X} + \frac{t\sigma}{\sqrt{n}}\right\} = 2\phi(t) = \gamma,$$

ya’ni  $\gamma$  ishochlilik bilan  $\left(\bar{X} - \frac{t\sigma}{\sqrt{n}}, \bar{X} + \frac{t\sigma}{\sqrt{n}}\right)$  ishonch oralig‘i  $a$  noma’lum parametrni qoplaydi, deb ta’kidlash mumkin.

**Izoh:** Yuqoridagi munosabatdagi  $t$  kattalikni  $\phi(t) = \frac{\gamma}{2}$  tenglikdan ilovadagi

Laplas integral fuksiyasi qiymatlari keltirilgan. Bahoning aniqligi  $\delta = \frac{t\sigma}{\sqrt{n}}$  ga teng bo‘ladi.

**Normal taqsimot dispersiyasi noma’lum bo‘lgan holda uning matemftik kutilmasi uchun interval baho**

$X - a$  va  $\sigma^2$  parametrlar bilan normal taqsimlangan tasodifiy miqdor, ya’ni  $N(a, \sigma^2)$  bo‘lib, parametrlar  $a$  va  $\sigma$  larning qiymati noma’lum bo‘lsin. Noma’lum  $a$  parametrli  $\gamma$  ishochlilik bilan qoplaydigan ishoch oraligini topamiz. Tanlanmaning qiymatilari bo‘yicha erkinlik darajasi  $h = n - 1$  bo‘lgan Styudent taqsnimotli T tasodifiy miqdorni aniqlaymiz:

$$T = \frac{\bar{X} - \sigma^2}{s / \sqrt{n}}$$

bu yerda  $\bar{X}$  - tanlanma o‘rta qiymat,

$s$  - “tuzatilgan” o‘rtacha kvadiratik chetlashish,

$n$  - tanlanma hajmi bilan aniqlanadi va  $a, \sigma$  noma’lum parametr larga bo‘g‘liq emas.  $S(n, t)$  zichlik funksiyasi –  $t$  bo‘yicha juft fuksiyasi bo‘lgani uchun

$$P(|T| < t_\gamma) = P\left(\left|\frac{\bar{X} - a}{s/\sqrt{n}}\right| < t_\gamma\right) = 2 \int_0^{t_\gamma} S(n, t) dt = \gamma$$

yoki

$$P\left(\bar{X} - t_\gamma \frac{s}{\sqrt{n}} < a < \bar{X} + t_\gamma \frac{s}{\sqrt{n}}\right) = \gamma$$

Shunday qilib,  $\left(\bar{X} - t_\gamma \frac{s}{\sqrt{n}}, \bar{X} + t_\gamma \frac{s}{\sqrt{n}}\right)$  ishonch oralig'i  $a$  noma'lum

parametrni  $\gamma$  ishochiilik bilan qoplaydi.

**Izoh.** Yuroridagi munosabatda  $t_\gamma$  kattalik berilgan  $n$  bo'yicha ilovadagi Styudentning  $t$  kriteriyasi qiymatlari keltirilgan. Bahoning aniqligi  $\delta = t_\gamma \frac{s}{\sqrt{n}}$  ga teng.

### **Normal taqsimotning o'rtacha kvadratik chetlashishi uchun ishonch oralig'i**

Normal taqsimotning  $a$  va  $\sigma^2$  parametrлари noma'lum bo'lsin. Tanlanma bo'yicha ularning nuqtaviy baholari

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n X_i \quad \text{va} \quad s = \sqrt{\frac{1}{n-1} \sum_{i=1}^n (X_i - \bar{X})^2}$$

topilgan bo'lib, bizga  $\sigma$  parametrni berilgan  $\gamma$  ishonchlik bilan qoplaydigan ishonch oralig'ini topish vazifasi qo'yilgan bo'lsin. Ushbu

$$\chi^2 = \frac{(n-1)s^2}{\sigma^2}$$

yordamchi tasodifiy miqdorni tuzamiz. Bu tasodifiy miqdor erkinlik darajasi  $n-1$  bo'lgan  $\chi^2$  taqsimot qonuniga ega.  $\chi^2$  tasodifiy miqdorning  $(a_1; a_2)$  oraliqqa tushush ehtimolligi

$$P(a_1 < \chi^2 < a_2) = \int_{a_1}^{a_2} f_{\chi^2}(x) dx .$$

bu yerda:  $f_{\chi^2}(x)$  erkinlik darajasi  $n-1$  bo'lgan  $\chi^2$  taqsimotning zichlik funksiyasi. Yuqoridagi ehtimollikni  $\gamma$  ga tenglashtiramiz va  $a_1, a_2$  larni topamiz.

$$P(\chi^2 \geq a_2) = \int_{a_2}^{\infty} f_{\chi^2}(x) dx = \frac{1-\gamma}{2} \quad \text{va} \quad P(\chi^2 \leq a_1) = \int_{0_1}^{a_1} f_{\chi^2}(x) dx = \frac{1-\gamma}{2}.$$

U holda

$$P\left(a_1 < \frac{(n-1)s^2}{\sigma^2} < a_2\right) = P\left(\sqrt{a_1} < \frac{\sqrt{n-1} \cdot s}{\sigma} < \sqrt{a_2}\right) = P\left(s \cdot \sqrt{\frac{n-1}{a_2}} < \sigma < s \cdot \sqrt{\frac{n-1}{a_1}}\right) = \gamma.$$

$\sqrt{\frac{n-1}{a_1}}, \sqrt{\frac{n-1}{a_2}}$  qiymatlar jadvallashtirilgan. Ilovada berilgan  $(\gamma; n)$  lar uchun  $q$

ni aniqlaymiz va quyidagi formula bo'yicha ishonch oralig'ini topamiz:

$$\begin{aligned} s(1-q) &< \sigma < s(1+q), & q < 1 \\ 0 &< \sigma < s(1+q), & q \geq 1 \end{aligned}$$

### Binomial taqsimot uchun ehtimollikni nisbiy chastota bo'yicha baholash

Tasodify hodisaning  $p$  ehtimoli (bosh to'plam ulushi) uchun ishonchi oralig'ini topamiz. Biz bilamizki,  $\omega$  nisbiy chastota  $p$  uchun nuqtaviy baho, ya'ni  $\omega = p$  va bundan tashqari

$$D\omega = p \cdot q = p \cdot (1-p).$$

U holda  $\omega$  tasodify miqdor  $n \rightarrow \infty$  da  $N\left(p; \frac{pq}{n}\right)$  parametrli normal taqsimotga ega bo'ladi. Berilgan  $\gamma$  ishonchlilik uchun shunday  $t_\gamma$  ni topish kerakki, quyidagi munosabat o'rinni bo'lsin:

$$P(|\omega - p| < t_\gamma \cdot \sigma) = \gamma,$$

yoki  $\gamma$  ishonchlilik bilan

$$|\omega - p| < t_\gamma \sigma = \sqrt{\frac{p(1-p)}{n}} \cdot t_\gamma$$

Bu ifodadan  $p$  ganisbatan kvadratik tengsizlikka kelamiz:

$$\left(\frac{t_\gamma^2}{n} + 1\right)p^2 + \left(2\omega + \frac{t_\gamma^2}{n}\right)p + \omega^2 < 0.$$

Tengsizlikning yechimi  $(p_1; p_2)$  intervaldan iborat bo'lib,  $p$  ehtimollik uchun  $\gamma$  ishonchlilik bilan qurilgan intervaldir, bu yerda

$$p_1 = \frac{\omega + \frac{t_\gamma^2}{2n} - t_\gamma \sqrt{\frac{\omega(1-\omega)}{n} + \frac{t_\gamma^2}{4n^2}}}{1 + \frac{t_\gamma^2}{n}}, \quad p_2 = \frac{\omega + \frac{t_\gamma^2}{2n} + t_\gamma \sqrt{\frac{\omega(1-\omega)}{n} + \frac{t_\gamma^2}{4n^2}}}{1 + \frac{t_\gamma^2}{n}}$$

Demak,  $(p_1; p_2)$  interval  $p$  ehtimollik uchun  $\gamma$  ishonchlilik bilan qurilgan intervaldir.

$n$  ning katta qiymatlarida ( $\approx 100$ )  $\frac{t_\lambda^2}{2n}$  va  $\frac{t_\lambda^2}{4n^2}$  qo'shiluvchilarining qiymatlari juda kichik, kamida  $1 + \frac{t_\lambda^2}{n} \approx 1$ . Shuning uchun

$$p_1 = \omega - t_\gamma \sqrt{\frac{\omega(1-\omega)}{n}}, \quad p_2 = \omega + t_\gamma \sqrt{\frac{\omega(1-\omega)}{n}}.$$

Eslatib o'tamiz:  $t_\gamma$  ning qiymati  $2\Phi(t_\gamma) = \gamma$  tanglamaning yechimi sifatida Laplasning integral funksiyasining qiymatlari keltirilgan ilovadan aniqladi. Bahoning aniqligi  $\delta = t_\gamma \sqrt{\frac{\omega(1-\omega)}{n}}$  ga teng.

### 3.4. Korrelyatsiya analizining asosiy elementlari va emperik funksiyalar qurish

**Funksional, statistik va korrelyatsion bog'lanishlar:** Ko'pincha tajriba ishlarida turli son va sifat belgilari orasidagi munosabatlarni o'rganishga to'g'ri keladi. Belgilar orasidagi bog'lanish funksional, statistik va korrelyatsion bo'lishi mumkin.

Funksional bog'lanishlarda bir o'zgaruvchi miqdorning har qaysi qiymatiga boshqa o'zgaruvchi miqdorning aniq bitta qiymati mos keladi.

Masalan, aylana radiusi  $R$  va uning uzunligi  $C$  orasida geometriyadan ma'lum bo'lgan  $C = 2\pi R$  formula bo'yicha aniqlangan funksional bog'lanish mavjud. Boshqacha aytganda,  $R$ -ning har bir qiymatiga  $C$  ning aniq bitta qiymati mos keladi.

Ma'lum bir hodisalarda belgining aniq qiymatiga boshqa belgining bir emas, balki bir qancha qiymatlari to'g'ri keladi, ba'zan bu qiymatlar aniqmas bo'lib

qolishi ham mumkin.

Masalan hosil solingan o‘g‘it miqdoriga bog‘liq, lekin bu bog‘lanishda aniq moslik yo‘q. Bir xil sifatli, bir xil miqdorda o‘g‘it berilganda ham hosil turlicha bo‘lishi mumkin, chunki hosilning miqdori o‘g‘itdan tashqari boshqa ko‘p sabablarga ham bog‘liq bo‘ladi; Bu holda statistik bog‘lanish yuzaga keladi.

Statistik bog‘lanish deb shunday bog‘lanishga aytildiği, unda miqdorlardan birining o‘zgarishi ikkinchisining taqsimoti o‘zgarishga olib keladi.

Xususan, statistik bog‘liqlik miqdorlardan birining o‘zgarishi ikkinchisining o‘rtacha qiymatini o‘zgarishda ko‘rinadi; bu holda statistik bog‘lanish korrelyatsion bog‘lanish deb ataladi.

Korrelyatsion bog‘liqlik ta’rifini aniqlashtiramiz, buning uchun shartli o‘rtacha qiymat tushunchasini kiritamiz.

“ $y$ ” tasodifiy miqdorda va  $X$  tasodifiy miqdor orasidagi bog‘lanish o‘rganilayotgan bo‘lsin.  $x$ -ning har bir qiymatiga  $y$ -ning bir nechta qiymati mos kelsin.

**Ta’rif.** Y-ning  $X$ -ga korrelyatsiya bog‘liqlik deb,  $y_x$  shartli o‘rtacha qiymatning  $x$ -ga funksional bog‘liqligiga aytildi.

$$Y_x = f(X) \quad (1)$$

(1) tenglama Y-ning  $X$ -ga regressiya tenglamasi deyiladi,  $f(x)$  funksiya  $y$ -ning regressiyasi, uning grafigi esa  $y$ -ning  $X$ -ga regressiya chizig‘i deyiladi.

$X_y$  shartli o‘rtacha qiymat va  $x$ -ning  $y$ -ga korrelyatsion bog‘liqligi unga o‘xshash aniqlanadi. Demak, korrelyatsiya nazariyasining birinchi masalasi korrelyatsion bog‘lanish formasini aniqlashdir, ya’ni regressiya funksiyasining ko‘rinishini: chiziqli, kvadratik, ko‘rsatkichli va h.k. topish.

Korrelyatsiya nazariyasining ikkinchi masalasi korrelyatsion bog‘lanishning zichligini (kuchini) aniqlashdir. Y-ning  $X$ -ga korrelyatsion bog‘liqligining zichligi  $y$ -ning qiymatlarini  $y_x$  shartli o‘rtacha qiymat atrofida tarqoqligining kattaligi bo‘yicha baholanadi.

Regressiyada ishtirok etayotgan faktorilar soniga qarab oddiy yoki ko‘p o‘lchovli regressiyalar farqlanadi.

**Oddiy regressiya** ikki o‘zgaruvchi  $x$  va  $y$  lar orasidagi bog‘liqlik, ya’ni  $y = f(x)$  ko‘rinishidagi munosabatdan iborat. Bunda  $y$  - bog‘liq (natijaviy yoki tushuntiriladigan),  $x$ - bog‘liqsiz (tushuntiradigan) o‘zgaruvchi.

**Ko‘p o‘lchovli regressiya** deganda  $y$  tushuntiriladigan o‘zgaruvchi va ikki yoki undan ortiq tushuntiradigan) o‘zgaruvchilar orasidagi  $y = f(x_1, x_2, \dots, x_k)$  bog‘liqlik tushuniladi.

$y = f(x)$  funksiyaning ko‘rinishiga qarab oddiy regressiya chiziqli va egrichiziqli regressiyaga farqlanadi. Oddiy regressiya tenglamasi ikki o‘zgaruvchi orasidagi qonuniyatni xarakterlab bu qonuniyat faqat o‘zgaruvchilar ustidagi kuzatishlar asosida aniqlanib har bir kuzativ natijasini emas, balki kuzatuvlar uchun umumiylilikni aks ettiradi. Misol uchun, biror mahsulotga talab  $y$  ning shu mahsulot narxi  $x$  ga bog‘liqligi  $y = 5000 - 2x$  tenglama bilan berilsa, bu deganiki, mahsulot narxi bir birlikka oshsa, o‘rta hisobda talab 2 birlikka kamayar ekan.

Amalda  $y$  kattalik ikki qo‘shiluvchidan iborat:

$$y = \tilde{y}_x + \varepsilon,$$

bu yerda:  $y$  - natijaviy o‘zgaruvchining asl qiymati;

$\tilde{y}_x$  - regressiya tenglamasidan aniqlangan natijaviy o‘zgaruvchining nazariy qiymati;

$\varepsilon$  - hatolik (shovqin) deb ataluvchi tasodifiy miqdor bo‘lib, u natijaviy o‘zgaruvchi asl qiymatining nazatiy qiymatidan chetlashishini baholaydi.

Biror miqdorlar sistemasi  $(X, Y)$  o‘rganilayotgan va  $n$  ta bog‘liqsiz kuzatishlar asosida  $n$  juft natijalar  $(x_1; y_1), (x_2; y_2), \dots, (x_n; y_n)$  olingan bo‘lsin. Bu juftliklarning to‘g‘ri chiziqli  $XOY$  koordinatalar sistemasidagi grafik tasviriga **korrellogramma (korrelyatsiya maydoni)** deyiladi. Korrellogrammadan bu ikki o‘zgaruvchi orasidagi bog‘liqliknini o‘rganish va regressiya tenglamasi ko‘rinishini tanlashda foydalanish qulay.

$y$  faktorning  $x$  faktorga bog‘liqligi:

$$y = \varphi(x)$$

Qandaydir texnologik jarayonda o‘tkazilayotgan tajribaga asosan aniqlash talab qilinsin.

Tajriba natijalari quyidagi jadval

$$\begin{array}{cccccc} X: & X_1 & X_2 & \dots & X_n \\ Y: & Y_1 & Y_2 & \dots & Y_n \end{array}$$

ko‘rinishda berilgan bo‘lsin.

Izlanayotgan  $y = \varphi(x)$  funksiya qandaydir ma’noda tajriba natijalarini aks ettirsin.  $y = \varphi(x)$  funksiyaning ko‘rinishi nazariy mulohazalarga asosan yoki tajribada olingan qiymatlarga mos keladigan nuqtalarning koordinatalari tekisligida joylashuviga qarab aniqlanadi. Bu chiziqli funksiya, parabolic funksiya, poliminiyal ko‘rinishdagi funksiya, logorifmik, eksponiansial, ko‘rsatkichli va h.k. funksiyalar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Izlanayotgan  $\varphi(x)$  funksiya  $Y$  funksiyaning  $X$  faktorga nisbatan regressiay tenglamasi yoki bir faktorli regression model deb ham ataladi.

### 3.5. Bir omilli regressiya tenglamalarini qurish.

#### Kichik kvadratlar usuli

Bizga quyidagi tajribalar natijalari berilgan bo‘lsin

$x$	$x_1$	$x_2$	...	$x_n$
$y$	$y_1$	$y_2$	...	$y_n$

Bir faktorli regression model

$$y = \varphi(x, a, b, \dots) \quad (1)$$

Ko‘rinishda tanlab olingach, shu modelga kiruvchi  $a, b, c, \dots$  parametrlarni shunday tanlash kerakki, u o‘rganilayotgan texnologik jarayonni biror ma’noda yaxshi aks ettirsin. Qo‘yilgan masalani yechishda keng tarqalgan usul-kichik

kvadratlar usulidir.

Texnologik jarayonda o‘tkazilgan tajribada olingan  $y_t$  qiymat bilan mos nuqtalardagi  $\varphi(x, a, b, \dots)$  funksiya qiymatlari orasidagi ayirmalar kvadratlarining yig‘indisini qaraymiz.

$$S(a, b, c, \dots) = \sum_{i=1}^n [y_i - \varphi(x_i, a, b, c, \dots)]^2 \quad (2)$$

$a, b, c$  parametrlarni shunday tanlaymizki, bu yig‘indi eng kichik qiymat qabul qilsin.

Demak,  $S(a, b, c, \dots)$  funksiyani minimumga aylantiradigan  $a, b, c, \dots$  parametrlari quyidagi tenglamalar sistemasini qanoatlantirishi lozim

$$\frac{\partial S}{\partial a} = 0, \quad \frac{\partial S}{\partial b} = 0, \quad \frac{\partial S}{\partial c} = 0, \quad (3)$$

**Chiziqli regressiya tenglamasi:** “ $X$ ” va “ $Y$ ” son belgilari chiziqli korelyatsion bog‘lanish bilan bog‘langan bo‘lsin. Bu holda ikkala regressiya chizig‘i ham to‘g‘ri chiziq bo‘ladi.

Bu to‘g‘ri chiziqlarning tenglamalarni topish uchun  $n$  – ta sinov o‘tkazilgan bo‘lib, natijada  $n$  – ta son jufti topilgan:  $(x_1, y_1) \cdot (x_2, y_2) \cdot \dots \cdot (x_n, y_n)$ .

Bu son juftlarini  $(x, y)$  tasodifyi miqdorning mumkin bo‘lgan barcha qiymatlaridan olingan tasodifyi tanlanma sifatida qarash mumkin bo‘lgani uchun bu sonlar bo‘yicha topilgan kattaliklar va tenglamaga tanlanma nomi qo‘shiladi. Aniqlik uchun,  $y$ -ning  $X$ -ga regressiya to‘g‘ri chizig‘ining tanlama tenglamasini topamiz.

Eng sodda holda  $X$  belgining turli  $x$  qiymatlari va belgining ularga mos  $y$  qiymatlari bir martadan kuzatilgan bo‘lsin. Bunday ma’lumotlarni gruppashning ham zarurati yo‘q, Shuningdek sharqli o‘rtacha qiymatdan foydalanishga hojat yo‘q, shuning uchun topilishi kerak tenglamani bunday yozish mumkin.

$$y = kx + b \quad (4)$$

$y$ -ning –ga regressiya to‘g‘ri chizig‘ining burchak koeffitsiyentini  $y$ -ning  $x$

ga tanlanma regressiya koeffitsiyenti deb, uni  $\rho_{yx}$  bilan belgilaymiz. Shunday qilib,  $y$  ning  $X$  ga regressiya to‘g‘ri chizig‘ining.

$$y = \rho_{yx}X + b \quad (5)$$

Ko‘rinishdagi tanlanma tenglamasini izlaymiz. O‘z oldimizga “ $\rho_{yx}$ ” va “ $b$ ” parametrlarini shunday tanlashni vazifa qilib qo‘yamizki,  $XOY$  tekislikda yasalgan  $(x_1, y_1), \dots, (x_n, y_n)$  nuqtalar iloji boricha to‘g‘ri chiziqqa yaqin yotsin.

“ $\rho_{yx}$ ” va “ $b$ ” parametrlarni chetlanishlarning kvadratlar yig‘indisi minimal bo‘ladigan qilib tanlaymiz va parametrlar

$$\begin{aligned} \rho_{yx} &= \frac{n \sum Xy - \sum X \cdot \sum Y}{n \sum X^2 - (\sum x)^2} \\ b &= \frac{\sum X^2 \cdot \sum Y - \sum X \cdot \sum XY}{n \sum X^2 - (\sum X)^2} \end{aligned} \quad (6)$$

bo‘lishini topish mumkin.

Misol:  $Y$ -ning  $X$  – ga regressiya to‘g‘ri chizig‘ining tanlama tenglamasi  $n = 5$  ta kuzatish ma’lumotlar bo‘yicha toping.

$X$  2 3 4 5 6

$Y$  3 5 7 9 11

Yechich: Hisoblash jadvalini tuzamiz:

$X_i$	$Y_i$	$X_i^2$	$X_i \cdot Y_i$
2	3	4	6
3	5	9	15
4	7	16	28
5	9	25	45
6	11	36	66
$\sum X_i = 20$	$\sum Y_i = 35$	$\sum X_i^2 = 90$	$\sum X_i \cdot Y_i = 160$

Izlayotgan parametrlarni topamiz, buning uchun jadval bo‘yicha hisoblangan yig‘indilarni (6) munosabatlarga qo‘yamiz:

$$\rho_{yx} = \frac{5 \cdot 160 - 20 \cdot 35}{5 \cdot 90 - 400} = \frac{800 - 700}{450 - 400} = \frac{100}{50} = 2 \quad b = \frac{90 \cdot 35 + 20 \cdot 160}{50} = \frac{3150 - 3200}{50} = \frac{-50}{50} = -1$$

Izlanayotgan regressiya tenglamasi quydagicha bo‘ladi:  $y = 2X - 1$

### Ikkinchchi tartibli regressiya tenglamasi

Qidirilayotgan  $\varphi(x, a, b, c, \dots)$ - ikkinchi tartibli funksiya bo‘lsin, ya’ni

$$\varphi(a, b, c, \dots) = ax^2 + bx + c \quad (7)$$

U holda,

$$S(a, b, c) = \sum_{i=1}^n [ax_i^2 + bx_i + c - y_i]^2 \rightarrow \min$$

$a, b$  va  $c$  ni parametrlar shunday tanlab olinadiki, bu yig‘indi eng kichik qiymat qabul qilinsin. Buning uchun bu yig‘indini  $a, b$  va  $c$  parametrlar bo‘yicha xususiy hosilalami olamiz va 0 ga tenglaymiz.

$$\frac{\partial S}{\partial c} = 2 \sum_{i=1}^n [ax_i^2 + bx_i + c - y_i] = 0$$

$$\frac{\partial S}{\partial b} = 2 \sum_{i=1}^n [ax_i^2 + bx_i + c - y_i]x_i = 0$$

$$\frac{\partial S}{\partial a} = 2 \sum_{i=1}^n [ax_i^2 + bx_i + c - y_i]x_i^2 = 0$$

Quyidagi belgilashlar kirlitsak:

$$P_1 = \sum_{i=1}^n x_i, \quad P_2 = \sum_{i=1}^n x_i^2, \quad P_3 = \sum_{i=1}^n x_i^3, \quad P_4 = \sum_{i=1}^n x_i^4,$$

$$Q_1 = \sum_{i=1}^n y_i, \quad Q_2 = \sum_{i=1}^n x_i \cdot y_i, \quad Q_3 = \sum_{i=1}^n x_i^2 \cdot y_i$$

U holda quyidagi tenglamalar sistemasi hosil bo‘ladi.

$$\begin{cases} P_2a + P_1b + n \cdot c = Q_1 \\ P_3a + P_2b + P_1c = Q_2 \\ P_4a + P_3b + P_2c = Q_3 \end{cases}$$

Bu tenglamalar sistemasi yechilib noma'lumlar  $a, b, c$  koeffitsiyentlar topiladi va funksiyaga olib borib qo‘yiladi.

## IV –BOB. KO‘P FAKTORLI REGRESSION MATEMATIK MODELLAR QURISH

### 4.1. To‘la faktorli eksperiment

To‘la faktorli eksperiment deb faktorlarning qaytarilmaydigan hamma qiymatlarini hisobga oluvchi eksperimentga aytiladi. To‘la faktorli eksperiment yordamida quyidagi chiziqli polinom.

$$Y_R = b_0 + b_1 x_1 + \dots + b_i x_i + \dots + b_m x_m \quad (1)$$

yoki to‘liqsiz ikkinchi tartibli polinomlar

$$\begin{aligned} Y_R = & b_0 + b_1 x_1 + \dots + b_i x_i + \dots + b_m x_m + b_{12} x_1 x_2 + \dots + \\ & + b_{ij} x_i x_j + \dots + b_{m-1,m} x_{m-1} x_m \end{aligned} \quad (2)$$

qurilishi mumkin.

Bu yerda:  $Y_R$  – chiquvchi parametrning hisobiy qiymati,

$x_i, x_j$ - faktorlarning kodlashtirilgan qiymati,

$m$ - faktorlar soni,

$b_0, b_i, b_{ij}$  - aniqlanishi zarur bo‘lgan regressiya koeffitsiyentlari.

To‘la faktorli eksperiment asosida ko‘p faktorli regression modellar quyidagi bosqichlar yordamida quriladi:

1. Birlamchi dastlabki eksperiment o‘tkazish (dastgohlarni, namunani tayyorlash, tajriba sinovini o‘tkazish, o‘lchovchi asboblarni tayyorlash, tekshirib ko‘rish).
2. To‘la faktorli eksperimentni rejorashtirish (rejorashtirish matritsasini qurish, qayta bajariladigan tajribalarni rejorashtirish).
3. To‘la faktorli eksperiment o‘tkazish shartlarini aniqlash (faktorlarni o‘zgarish intervalini, quyi va yuqori qiymatlarini aniqlash).
4. Rejorashtirish matritsasi asosida asosiy tajribani o‘tkazish.
5. Tajriba natijalarini qayta ishslash.

6. Olingan modelni tahlil qilish.

Chiziqli regressiya modelining koeffitsiyentlari soni quyidagiga teng:

$$N_k = M + 1$$

To‘liqsiz ikkinchi tartibli regressiya modelida esa koeffitsiyentlar soni:

$$N = M + 1 + C_M^2 = M + 1 + \frac{M(M - 1)}{2}$$

Agar bir faktor uchun o‘zgarish qiymatini 2 ga teng desak, u holda To‘la faktorli eksperiment uchun tajribalar soni:

$$N = 2^M$$

To‘la faktorli eksperiment uchun (1), (2) modellar  $M \leq 4$  bo‘lganda yaxshi natija beradi.

Kodlashtirilgan faktorning quyisi va yuqori qiymatlari quyidagicha hisoblanadi:

$$X_{yui} = +1 = \frac{X_{yui} - X_{oi}}{I_i}$$
$$X_{qi} = -1 = \frac{X_{qi} - X_{oi}}{I_i}$$

bu yerda:  $X_{oi}$  –  $i$  chi faktorning asosiy (o‘rtanchi) qiymati,

$X_{yui}$  –  $i$  chi faktorning yuqori qiymati,

$X_{qi}$  –  $i$  chi faktorning quyisi qiymati,

$I_i$  –  $i$  chi faktorning o‘zgarish oralig‘i.

Faktorlarning haqiqiy va kodlashtirilgan qiymatlari orasida quyidagi munosabatlар о‘rinli:

$$X_i = \frac{X_i - X_{oi}}{I_i}$$

$$i = 1, 2, \dots, M$$

Uch faktorli to‘la faktorli eksperiment uchun rejalshtirish matritsasi quyidagi ko‘rinishga ega:

### 3- Jadval

u	Faktorlar			Shartli belgilash
	$X_1$	$X_2$	$X_3$	
1.	-	-	-	(1)
2.	+	-	-	a
3.	-	+	-	b
4.	+	+	-	ab
5.	-	-	+	c
6.	+	-	+	ac
7.	-	+	+	bc
8.	+	+	+	abc

To‘rt faktorli to‘la faktorli eksperiment – ( $2^4$ ) uchun esa rejulashtirish matritsasining shartli belgilash tartibi quyidagicha:

(1),  $a, b, ab, c, ac, bc, abc, d, ad, bd, cd, acd, bcd, abcd$

Rejulashtirish martitsasi tuzilgandan so‘ng tajriba o‘tkazish shartlari ya’ni faktorlarning quyi, o‘rtanchi, yuqori qiymatlari va o‘zgarish oralig‘i aniqlanadi.

### 2-Jadval

Tajribaning rejulashtirish sharti

№	Faktorning nomi,belgisi	Kodlash-tirilgan belgisi	Faktorning haqiqiy qiymatlari			O‘zgarish oralig‘i
			-1	0	+1	
I	$\dots, \dots, X_i$	$X_i$	$X_{qi}$	$X_{oi}$	$X_{yui}$	$I_i$

So‘ng izlanuvchi rejulashtirish matritsasi asosida asosiy tajribani o‘tkazadi, olingan tajribaviy natijalarini jadval 3 ga qayd etadi.

### 3-Jadval

Rejalarshirish matritsasi va tajriba natijalari.

№	Faktorlar			$U_{uv}$			$\bar{U}_u$	$S_u^2\{u\}$
	$X_1$	$X_2$	$X_3$	$U_{u1}$	$U_{u2}$	$U_{u3}$		
1.	-	-	-	$u_{11}$	$u_{12}$	$u_{13}$	$\bar{u}_1$	$S_1^2\{u\}$
2.	+	-	-	$u_{21}$	$u_{22}$	$u_{23}$	$\bar{u}_2$	$S_2^2\{u\}$
3.	-	+	-	$u_{31}$	$u_{32}$	$u_{33}$	$\bar{u}_3$	$S_3^2\{u\}$
4.	+	+	-	$u_{41}$	$u_{42}$	$u_{43}$	$\bar{u}_4$	$S_4^2\{u\}$
5.	-	-	+	$u_{51}$	$u_{52}$	$u_{53}$	$\bar{u}_5$	$S_5^2\{u\}$
6.	+	-	+	$u_{61}$	$u_{62}$	$u_{63}$	$\bar{u}_6$	$S_6^2\{u\}$
7.	-	+	+	$u_{71}$	$u_{72}$	$u_{73}$	$\bar{u}_7$	$S_7^2\{u\}$
8.	+	+	+	$u_{81}$	$u_{82}$	$u_{83}$	$\bar{u}_8$	$S_8^2\{u\}$

bu yerda:  $\bar{U}_u$  – chiquvchi faktorning  $u$  chi tajribadagi o‘rtacha qiymati,

$S_u^2\{u\}$  – chiquvchi faktorning  $u$  chi tajribadagi dispersiyasi.

Tajriba natijalarini qayta ishlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Ajralib turgan qiymatlarni chiqarib tashlash.
2. Koxren kriteriyasi yordamida dispersiyalarni bir jinsligini tekshirish.
3. Regressiya koeffitsiyentlarini hisoblash.
4. Styudent kriteriyasi yordamida regressiya koeffitsiyentlarini ahamiyatlilarini aniqlash.
5. Fisher kriteriyasi yordamida olingan modelni adekvatligini (ko‘rilayotgan texnologik jarayonga mosligini) tekshirish.
6. Qurilgan modelni tahlil qilish.

Biz quyida bu bosqichlarni ko‘rib chiqamiz.

## 4.2. Tajriba natijalarini qayta ishlash

### 4.2.1 Ajralib turgan qiymatlarni chiqarib tashlash

Bizga bir xil sharoitdagi tajriba natijalari berilgan bo'lsin:

$$y_1, y_2, \dots, y_m$$

bu yerda: masalan, eng kichik  $y_i = y_{\min}$  yoki eng katta qiymat  $y_i = y_{\max}$  boshqa qiymatlardan ajralib tursin. Bu qiymatlarni keyingi izlanishlardan chiqarish yoki chiqarmaslik masalasi tajriba shartini tahlil qilish yoki statistik usulda amalga oshiriladi.

Statistik usulda *Smirnov – Grabs* kreteriyasi yordamida chegaraviy qiymatlar hisoblanadi:

$$\begin{aligned} V_{R_{\max}} &= \frac{(y_{\max} - \bar{y})}{S\{y\}} \sqrt{\frac{m}{m-1}}, \\ V_{R_{\min}} &= \frac{(\bar{y} - y_{\min})}{S\{y\}} \sqrt{\frac{m}{m-1}} \end{aligned} \quad (3)$$

bu yerda:  $\bar{y} = \frac{1}{m} \sum_{i=1}^m y_i = \frac{y_1 + y_2 + \dots + y_m}{m}$  – o'rta qiymat;

$$S^2\{y\} = \frac{1}{m-1} \sum_{i=1}^m (y_i - \bar{y})^2 = \frac{(y_1 - \bar{y})^2 + (y_2 - \bar{y})^2 + \dots + (y_m - \bar{y})^2}{m-1}$$

tuzatilgan dispersiy.

Bu qiymatlar maxsus jadvaldan [ilova] olinuvchi  $V_t[R_d; m]$ ] ( $R_d$  – ishonchlilik ehtimoli) qiymat bilan solishtiriladi. Masalan,  $R_d = 0,95$  ehtimoli bilan  $m = 3$  da  $V_t = 1,412$ ,  $m = 5$  da esa  $V_t = 1,412$ . Agar  $V_{R_{\max}} > V_t$  yoki  $V_{R_{\min}} > V_t$  bo'lsa, u holda  $y_{\max}$  yoki  $y_{\min}$  qiymatlar keyingi statistik qayta ishlashdan chiqarib tashlanadi.

#### 4.2.2. Koxren kriteriyasi

Bu kriteriya yordamida dispersiyalarning bir jinsliligi tekshiriladi. Buning uchun kriterianing hisobiy qiymati quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$G_R = \frac{s_{max}^2\{y\}}{\sum_{u=1}^N s_u^2\{y\}} \quad (4)$$

bu yerda:  $S_u^2\{y\} = \frac{1}{m-1} \sum_{i=1}^m (y_{iu} - \bar{y}_u)^2$  - dispersiyalar yig'indisi;

$s_{max}^2\{y\}$  - dirpirsiyalar **max**;

$s_u^2$  - **u** inchi tajribaga mos keluvchi dispersiyalar.

Koxren kriteriyasining tajribaviy qiymati esa:

$$G_t\{P_d = 0,95; f\{S_u^2\} = m - 1; N\}$$

Maxsus jadvaldan [ ilova ] olinadi.

Bu yerda:  $f = m - 1$  - ozodlik darajasini ko'rsatkichi deyiladi.

Agar  $G_R < G_t$  bo'lsa,  $\{S_u^2\}$  dispersiyalar bir jinsli deyiladi va ishni davom ettirish mumkin.

Agar dispersiyalar bir jinsli bo'lmasa, u holda tajribalar qaytarilishlar sonini ko'paytirish zarur.

#### 4.2.3 Regressiya koeffitsiyentlarini hisoblash

Kichik kvadratlar usuli yordamida regressiya koeffitsiyentlari topiladi va ular quyidagi formulalar orqali hisoblanadi.

Modelning ozod hadi:

$$b_0 = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N \bar{y}_u = \frac{\bar{y}_1 + \bar{y}_2 + \dots + \bar{y}_N}{N} \quad (5)$$

Chiziqli hadlar koeffitsiyentlari:

$$b_i = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N x_{iu} \bar{y}_u = \frac{x_{i1} \cdot \bar{y}_1 + x_{i2} \cdot \bar{y}_2 + \dots + x_{iN} \cdot \bar{y}_N}{N} \quad (6)$$

$$\underline{i = 1, M}$$

Chiziqsiz hadlar koeffitsiyentlari:

$$b_{ij} = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N x_{iu} x_{ju} \bar{y}_u = \frac{x_{i1} \cdot x_{j1} \cdot \bar{y}_1 + x_{i2} \cdot x_{j2} \cdot \bar{y}_2 + \dots + x_{iN} \cdot x_{jN} \cdot \bar{y}_N}{N} \quad i \neq j \quad (7)$$

$$b_{ijl} = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N x_{iu} x_{ju} x_{lu} \bar{y}_u = \frac{x_{i1} \cdot x_{j1} \cdot x_{l1} \cdot \bar{y}_1 + x_{i2} \cdot x_{j2} \cdot x_{l2} \cdot \bar{y}_2 + \dots + x_{iN} \cdot x_{jN} \cdot x_{lN} \cdot \bar{y}_N}{N} \quad i \neq j \neq l \quad (8)$$

bu yerda:  $x_{iu}$  –  $i$  chi faktorning uchi tajribadagi kodlashtirilgan qiymati.

#### 4.2.4 Styudent kriteriyasi

Bu kriteriya yordamida regressiya koeffitsiyentlarining ahamiyatliligi tekshiriladi. Buning uchun kriterianing hisobiy qiymati  $t_R$  kriterianing jadvaliy  $T_t$  qiymati bilan solishtiriladi.

Kriterianing hisobiy qiymati quyidagi formulalar orqali hisoblanadi. Dispersiyalar bir jinsliligini hisobga olsak,

$$S^2\{y\} = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N S_u^2\{y\}.$$

U holda

$$\begin{aligned} S^2\{\bar{y}\} &= \frac{1}{m} S^2\{y\} = \frac{1}{N m} \sum_{u=1}^N S_u^2\{y\}, \\ S^2\{b_i\} &= \frac{1}{N} S^2\{y\} \end{aligned} \quad (9)$$

Bular yordamida:

$$t_R\{b_i\} = \frac{|b_i|}{S\{b_i\}} \quad (10)$$

Styudent kriteriyasining jadvaliy qiymati esa

$$t_T [P_d, f\{S_u^2\} - N(m-1)]$$

Maxsus jadvaldan [ ilova ] topiladi.

Agar  $t_R > t_t$  bo'lsa, u holda ushbu  $b_i$  – koeffitsiyent ahamiyatli bo'ladi. Aks holda ushbu koeffitsiyent ahamiyatsiz hisoblanib, u qatnashgan modeldagi had tashlab yuboriladi.

#### 4.2.5. Modelni adekvatligini tekshirish

Regressiya koeffitsiyentlaridan kamida bittasini tashlab yuborilgan holdagina (ahamiyatsizini) qurilgan modelni adekvatligini ya’ni ko‘rilayotgan jarayonga mosligini tekshirib ko‘rish Fisher kriteriyasi orqali amalga oshiriladi. Bu holda ham  $F_R$  – hisobiy qiymat,  $F_t$  – jadvaliy qiymat bilan solishtiriladi. Agar  $F_R < F_t$  bo‘lsa u holda model  $R_d$  ehtimoli bilan adekvat bo‘ladi.

Fisher kriteriyasining hisobiy qiymati quyidagi formulalar orqali hisoblanadi:

$$F_R = \frac{s_{ad}^2\{y\}}{S^2\{y\}} = \frac{s_{nad}^2\{y\}}{S^2\{y\}}, \quad \text{agar} \quad S_{nad}^2\{y\} > S^2\{\bar{y}\} \quad (11)$$

$$F_R^1 = \frac{S^2\{y\}}{s_{ad}^2\{y\}} = \frac{S^2\{y\}}{s_{nad}^2\{y\}}, \quad \text{agar} \quad S^2\{\bar{y}\} > S_{nad}^2\{y\} \quad (12)$$

U holda

$$S_{ad}^2\{y\} = mS_{nad}^2\{y\} = \frac{m \sum_{u=1}^N (\bar{y}_u - y_{Ru})^2}{N - N_k} \quad (13)$$

bu yerda:  $y_{Ru}$  – hisobiy qiymat qurilgan model bo‘yicha hisoblanadi,

$N$  – umumiy koeffitsiyentlar soni,

$N_k$  – ahamiyatli koeffitsiyentlar soni,

$m$  – tajriba qaytarishlari soni.

Fisher kriteriyasining jadvaliy qiymati

$$F_t [P_d = 0,95; f\{S_y^2\} = N(m-1), f\{S_{nad}^2\} = N - N_k]$$

Maxsus jadvaldan [ ilova ] topiladi.

Agarda model adekvat bo‘lmasa, model faktorlar o‘zgarish oralig‘ini kichraytirilgan holi uchun qaytadan qurilishi kerak.

### 4.3. Quritish jarayonida tola sifat ko‘rsatkichlari uchun regression model qurish

Misol tariqasida paxtani quritish parametrlarining tola sifatiga ta’sirini o‘rganish uchun kerak bo‘lgan matematik modellarni qurishni ko‘rib chiqamiz. Buning uchun tajriba quritish barabanida namliklari 13,4% va 27,4% bo‘lgan chigitli paxtani quritish jarayonini ko‘ramiz. Kiruvchi faktorlar sifatida havoning temperaturasi, baraban ish unumдорлиги va paxtaning boshlang‘ich namligi olingan. Tajriba o‘tkazish shartlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-Jadval  
**Tajribaning rejalashtirish sharti**

№	Faktorning nomi, belgisi	Kodlash- tirilgan belgisi	Faktorning haqiqiy qiymatlari			o‘zgarish oralig‘i
			-1	0	+1	
1	Havo temperaturasi, $T_v$ , $^{\circ}$ S	$x_1$	110	155	200	45
2	Ish unumдорлиги, $P_r$ , %	$x_2$	6	9	12	3
3	Paxtani boshlang‘ich namligi, $W_B$ , %	$x_3$	13,4	20,4	27,4	7

Chiquvchi parametr sifatida tolanning uzilishga chidamliliginи ( $u$ ) olamiz va quritish parametrlarining (kiruvchi faktorlarning) bu sifat ko‘rsatkichiga ta’sirini tajriba asosida o‘rganamiz. Buning uchun rejalashtirish matritsasi asosida har bir sharoitda 3 marotaba takroran tajribalar o‘tkazamiz. Bu holda tajribalar soni  $N = 2^3 = 8$ , takrorlanishlar soni  $m = 3$  ni hisobga olsak, umumiyl tajribalar soni  $N \cdot m = 24$  bo‘ladi.

Chiquvchi parametrning tajribaviy natijalari va dispersiyalari 2-jadvalda keltirilgan.

### Rejalashtirish matritsasi, tajriba va hisobiy natijalar

u	Faktorlar						$\bar{y}_u$	$S_u^2$
	$x_1$	$x_2$	$x_3$	$y_{u1}$	$y_{u2}$	$y_{u3}$		
1	-	-	-	3,81	3,82	3,83	3,82	0,0001
2	+	-	-	3,65	3,75	3,7	3,7	0,0025
3	-	+	-	3,89	3,84	3,82	3,85	0,0013
4	+	+	-	3,79	3,81	3,8	3,8	0,0001
5	-	-	+	3,88	3,86	3,87	3,87	0,0001
6	+	-	+	3,74	3,79	3,72	3,75	0,0013
7	-	+	+	3,92	3,88	3,9	3,9	0,0004
8	+	+	+	3,81	3,82	3,77	3,8	0,0007

#### Tajriba natijalarini qayta ishlash:

Ajralib turgan qiymatlarni statistik usulda chiqarib tashlash 5-jadvaldagagi har bir satr uchun qo'llaniladi. Buning uchun har bir satr uchun o'rta qiymat va dispersiyalar hisoblanadi. Bu qiymatlar 5-jadvalda keltirilgan. Masalan, birinchi tajriba uchun:

$$\bar{y}_1 = \frac{3,75 + 3,65 + 3,7}{3} = 3,7$$

$$S_1^2 = \frac{(3,75 - 3,7)^2 + (3,65 - 3,7)^2 + (3,7 - 3,7)^2}{3 - 1}$$

$$y_{min} = 3,65; \quad y_{max} = 3,75$$

So'ng formulalar yordamida kriteriyaning chegaraviy qiymatlari hisoblanadi:

$$V_{Rmin} = 1,2247; \quad V_{Rmax} = 1,2247$$

Ko'rinish turibdiki, bu qiymatlar maxsus jadvaldan olingan  $V_t = 1,412$  qiymatdan kichik. Shuning uchun yuqoridagi eng katta va eng kichik qiymatlar keyingi statistik qayta ishlashdan chiqarib tashlanmaydi.

Ko'rileyotgan misolda har bir tajriba uchun ajralib turgan qiymatlar yo'q.

2. Dispersiyalarning bir jinsliligini tekshirish uchun formula yordamida hisobiy qiymat hisoblanadi:

$$G_R = \frac{S_{max}^2\{y\}}{\sum_{i=1}^N S_u^2\{y\}} = \frac{0,0025}{0,0065} = 0,3847$$

Koxren kriteriyasining jadvalining qiymati

$$G_T(P_D = 0,95; (S_u^2) = 2,8) = 0,516.$$

Demak,  $G_R < G_t$  bo‘lgani uchun dispersiyalar bir jinsli.

3. Koeffitsiyentlarni hisoblash uchun 5-jadvalda keltirilgan o‘rta qiymatlaridan foydalanamiz.

Ozod had:

$$b_0 = \frac{1}{8}(3,82 + 3,7 + 3,85 + 3,8 + 3,87 + 3,75 + 3,9 + 3,8) = 3,8112$$

Chiziqli hadlar koeffitsiyentlari:

$$b_1 = \frac{1}{8}(-3,82 + 3,7 - 3,85 + 3,8 - 3,87 + 3,75 - 3,9 + 3,8) = -0,0487;$$

$$b_2 = \frac{1}{8}(-3,82 - 3,7 + 3,85 + 3,8 - 3,87 - 3,75 + 3,9 + 3,8) = 0,026;$$

$$b_3 = \frac{1}{8}(-3,82 - 3,7 - 3,85 - 3,8 + 3,87 + 3,75 + 3,9 + 3,8) = 0,0187;$$

Chiziqsiz hadlar koeffitsiyentlari:

$$b_{12} = \frac{1}{8}(3,82 - 3,7 - 3,85 + 3,8 + 3,87 - 3,75 - 3,9 + 3,8) = 0,0112;$$

$$b_{13} = \frac{1}{8}(3,82 - 3,7 + 3,85 - 3,8 - 3,87 + 3,75 - 3,9 + 3,8) = -0,0062;$$

$$b_{23} = \frac{1}{8}(3,82 + 3,7 - 3,85 - 3,8 - 3,87 - 3,75 + 3,9 + 3,8) = -0,0062;$$

$$b_{123} = \frac{1}{8}(-3,82 + 3,7 + 3,85 - 3,8 + 3,87 - 3,75 - 3,9 + 3,8) = -0,0062.$$

U xolda quyidagi ko‘p faktorli regressiya modelini olamiz:

$$Y_R = 3,8112 - 0,0487x_1 + 0,026x_2 + 0,0187x_3 + 0,0112x_1x_2 - 0,0062x_1x_3 - 0,0062x_2x_3 - 0,0062x_1x_2x_3$$

Lekin bu modelning oxirgi ko‘rinishi emas.

3. Modelning oxirgi ko‘rinishini olish uchun koeffitsiyentlarni ahamiyatligini tekshiramiz. Buning uchun Styudent kriteriyasining formulalaridan foydalanamiz.

$$S^2(\bar{y}) = \frac{1}{Nm} \sum_{u=1}^N S_u^2(y) = \frac{0,0065}{8 \cdot 3} = 0,0002708 ;$$

$$S^2(b_1) = \frac{1}{N} S^2(\bar{y}) = \frac{0,0002708}{8} = 0,0000338 ;$$

$$S(b_1) = 0,0058137 .$$

Bular yordamida kriteriyaning hisobiy qiymatlarini hisoblaymiz:

$$t_R(b_1) = \frac{|b_1|}{S(b_1)} = \frac{0,0487}{0,0058137} = 8,3785$$

Huddi shuningdek:

$$\begin{aligned} t_R(b_2) &= 4,5115, & t_R(b_3) &= 3,2225, & t_R(b_{12}) &= 1,9334, \\ t_R(b_{13}) &= 1,0742, & t_R(b_{23}) &= 1,0742, & t_R(b_{123}) &= 1,0742. \end{aligned}$$

Styudent kriteriyasining jadvaliy qiymati

$$t_T[P_D, f(S_u^2) = N(m-1)] = t_T[P_D = 0,95; f = 8 \cdot (3-1) = 16] = 2,12.$$

Demak  $b_1, b_2, b_3$  koeffitsiyentlarning hisobiy qiymatlari jadvaliy qiymatdan katta, shuning uchun bu koeffitsiyentlar ahamiyatli, qolgan koeffitsiyentlar esa ahamiyatsizdir. Natijada quyidagi modelini hosil qilamiz:

$$Y_R = 3,8112 - 0,0487x_1 + 0,026x_2 + 0,0187x_3$$

Faktorlarning haqiqiy qiymatidan kodlashtirilgan qiymatiga quyidagi munosabatlar orqali

$$x_1 = \frac{T_B - 155}{45}$$

$$x_2 = \frac{\Pi p - 9}{3}$$

$$x_3 = \frac{W_H - 20,4}{7}$$

o‘tilib, chiquvchi faktorning hisobiy qiymatlari model orqali hisoblanadi.

3. Olingan modelning adekvatligini tekshirish uchun Fisher kriteriyasining formulalaridan foydalanamiz.

Buning uchun chiquvchi faktorning tajribaviy va hisobiy qiymatlarini taqqoslaymiz:

$u$	$\bar{y}_u$	$\bar{y}_{Ru}$	$\bar{y}_u - \bar{y}_{Ru}$	$(\bar{y}_u - \bar{y}_{Ru})^2$
1	3,82	3,815	0,005	0,000025
2	3,7	3,717	-0,017	0,000289
3	3,85	3,867	-0,017	0,000289
4	3,8	3,77	0,03	0,0009
5	3,87	3,852	0,018	0,000324
6	3,75	3,755	-0,005	0,000025
7	3,9	3,905	-0,005	0,000025
8	3,8	3,807	-0,007	0,000049
$\sum_{u=1}^N$	-	-	0,002	0,001945

Demak, modeldagи ahamiyatli koeffitsiyentlar soni  $N_k = 4$  hisobga olsak

$$S_{\text{над}}^2(y) = \frac{0,001945}{8 - 4} = 0,0004862$$

Bu son  $S^2(\bar{y}) = 0,0002708$  sondan katta bo‘lganligi uchun kriteriyaning hisobiy qiymati formula orqali hisoblanadi:

$$F_R = \frac{0,0004862}{0,0002708} = 1,795.$$

Fisher kriteriyasining jadvaliy qiymatini maxsus jadvaldan topamiz:

$$F_T [P_D = 0,95; f(S_y^2) = 16, f(S_{\text{над}}^2) = 4] = 5,85.$$

Demak,  $F_R < F_t$  bo‘lganligi uchun model adekvatdir, ya’ni u quritish jarayonidagi tolaning uzilishga chidamlik ko‘rsatkichini o‘zgarishini mos ifodalaydi.

## **V – BOB. CHIGITLI PAXTANI DASTLABKI ISHLASH** **MASALALARIDA BA’ZI BIR MATEMATIK MODELLAR**

Ma'lumki nazariy usullarda qurilgan modellar ko'p hollarda hisobiy formulalar, algebraik tenglamalar, algebraik tenglamalar sistemasi, oddiy differensial tenglamalar, xususiy hosilali differensial tenglamalar va ularning sistemalari va hakozo ko'rinishlarida bo'lishi mumkin. Biz quyida differensial tenglamalarga keluvchi masalalarni ko'rib chiqamiz.

### **5.1. Chigitli paxtani sovishi jarayoni uchun sodda bir matematik model**

Massasi  $m$  issiqlik sig'imi  $c$  o'zgarmas bo'lgan jism (masalan, chigitli paxta) boshlang'ich momentda  $T_0$  temperaturaga ega bo'lsin. Atrof muhit temperaturasi o'zgarmas va  $T_m(T_0 > T_m)$  ga teng. Jismning cheksiz kichik  $dt$  vaqt ichida bergen issiqligiga jism va uning atrofidagi muhit temperaturalari orasidagi farqga, shuningdek vaqtga proporsional ekanligini e'tiborga olgan holda jismning sovish qonunini toping.

**Yechilishi.** Sovish davomida jism temperaturasi  $T_0$  dan  $T_m$  gacha pasayadi. Vaqtning  $t$  momentida jism temperaturasi  $T$  ga teng bo'lsin. Cheksiz  $dt$  vaqt oralig'ida jism bergen issiqlik mirdori yuqorida aytilganiga ko'ra

$$\partial Q = -\alpha(T - T_m) \cdot \partial t$$

